Shuni ham ta'kidlash kerakki, bola ijodining dastlabki bosqichlarida yasalgan narsaning qismlari o'rtasida nomutonosiblik ko'zga tashlanadi. Bu shu bilan izohlanadiki, bolaning shu paytdagi diqqati va tafakkuri narsaning asosiy qismiga yo'naltirilgan bo'ladi, natijada asosiy qism to'g'ri bajarilgan holda, uning mayda qismlari o'xshamay qoladi. Masalan, bola odamning qo'lini uzun, qulog'ini katta qilib tasvirlashi mumkin. Bu o'rinda han tarbiyachining yo'naltiruvchi savollari bolaga to'g'ri yo'lni topishga, loydan odam shaklini yasayotganda uning tanasi, boshi, qo'l va oyoqlari bir-biriga mutanosibbo'lishiga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bolalardagi ijodiy qobiliyati qanchalik yuqori bo'lsa, ular uchun ijod qilish, yangilik yaratish imkoniyati ko'proq bo'ladi. Buning uchun bolalardagi mustaqil faoliyatni oilada ham ota-onas rahbarligida nazorat qilish lozim. Bolalar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda quyidagi vazifalarga e'tibor qaratish lozim. Bolalarni mustaqil izlashga o'rgatib boorish, tevarak-atrofdagi narsa hodisalarni izchil kuzatish, badiiy adabiyotlarni tinglash, san'at asarlarini tomasha qilish bolalarni qiziqishini tashabbuskorligini rivojlantirish.



PEDAGOGNING IJTIMOIY FAOLLIGI

Xoldarova Shohida Karimovna

Farg’ona viloyati Buvayda tumani

26-umumiyl o’rta ta’im maktabining

biologiya fani o’qituvchisi.

Tel nomeri: +998998216706

Annotatsiya: ushbu maqolada yoshlarimizning tarbiyalasida o’qituvchining o’rni va roli, yoshlar tarbiyasiga salbiy va ijobjiy ta’siri haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so’zlar: o’qituvchi, ijtimoiy faollik, tarbiya, qadriyat, ta’lim, axloq va odob, shaxs, kasbiy faoliyat.

O’sib kelayotgan yosh avlodlarni har tomonlama kamol topishida o’qituvchi faoliyati muhim ahamiyatga ega. O’qituvchi-o’zi yashayotgan jamiyatda faoliyat ko’rsatar ekan, bu faoliyat natijasida bu jamiyat manfaatlarini himoya qiladigan fuqarolarni shakllantiradi va mazkur fuqarolar ham tez orada ana shu jamiyatda yashay boashlaydi. Demak, o’qituvchi-murabbiy mehnati qaysidir bir ma’noda jamiyatning o’zini shakllantirib boradi deyish mumkin. O’qituvchilik mehnatining ahamiyati shunchalik ulug’vorki, o’zi yashayotgan davlat tizimining asosini ham, uning mehnati mahsuli bo’lgan shaxslarda shakllangan fazilatlar majmuasi, ham faoliyati natijalari sifatida belgilanadi.

Buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy ta’lim-tarbiya jarayonining xususiyatlari to’g’risida shunday yozadi: “Insonni o’qitish va tarbiyalash hamma narsadan ham qiyin va murakkab narsalardir-san’atlarning san’atidir, binobarin, san’atlarning san’atini yaratish, nihoyatda murakkab ish va u birgina kishining emas balki, ko’p kishilarning atroflicha muhokama yuritishini talab etadi, chunki bir odam har qancha zehni o’tkir bo’lsa ham, shunchalik ko’p narsaning hammasini diqqat markazida saqlab turish also mumkin emas” deydi.

Ya.A.Komenskiy yoshlarga ta’lim-tarbiya berish jarayonini muhim ekanligini va yana, uni tashkil etishda butun jamiyat, davlat va barcha fuqarolar ishtirok etishini va butun insoniyatga ta’sir etishini ham nazarda tutib, shunday yozadi: “Darhaqiqat, bu nihoyatda jiddiy ish shuning uchun ham, bu bir tomondan unga hamma e’tibor berishi kerak, ikkinchi tomonidan uni umumiyl fikr mulohazalarni hisobga olib baholash va ko’pchilikning umumiy kuchi bilan olg’a siljитish lozim, chunki u butun insoniyatning baxt-saodatini nazarda tutadi” degan. Shunday ekan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berilishida butun davlat xalq ishtirok etishi lozim, chunki, bu mehnat jarayoni natijasi butun jamiyatni, insoniyatni o’zgartiradi.

Ta’lim-tarbiya tizimida o’qituvchi muhim o’rin tutadi. O’quv-tarbiyaviy jarayonining barcha bosqichlarini amalga oshirishda o’qituvchi asosiy ishtirokchilik vazifasini bajaradi. Shuning uchun uzlusiz ta’lim tizimini isloh qilish, buning natijasida yoshlarni mustaqil hayotga yo’llanma olishlarida, yoshlar taqdirlini hal qilish orqali davlat rivojlanishi taraqqiyotini belgilashda avvalo, o’qituvchilarining o’zlarini ham tarbiyalab yetishtirish, ularning bilim, ko’nikma va malakalarini, shaxsiy fazilatlarini hozirgi davr ruhiga moslashtirish muhim ahamiyatga egadir.

O’qituvchi-pedagogning kasbiy faoliyatini samarali natjalarga erishishida uning aqliy, ma’naviy fazilatlarini shakllanishi asosiy omillardan hisoblanishi, avvalo shaxsiy namuna ko’rsatishi orqali, o’zi tarbiyalayotgan o’quvchilarini komil inson bo’lib kamol topishiga davit etish hisoblanadi. O’qituvchi hislat va fazilatları o’quvchilar uchun namunaviy manbaa vazifasini bajaradi. O’qituvchining jamiyatdagi o’rnini belgilashda uning o’zi ham, mavjud hislat va fazilatları ham, ijtimoiy, iqtisodiy o’zgarishlarning ham ob’yekt va sub’yekt hisoblanishiga e’tiborini qaratishi lozim. Ya’ni, o’qituvchilarining o’zlarini ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyot talablariga ko’ra mavjud kasbiy, axloqiy hislat va fazilatlarini takomillashtirib, rivojlantirib, yangilab boorish bilan birga, o’z o’quvchilarining zaruriy bilim, ko’nikma va malakalarini, turli hislat va fazilatlarini rivojlantirishga mas’ul hisoblanadilar.



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARНИ KASB-HUNARGА YO'NALТИРИШНИНГ TA'LIM TARBIYAVИY AHAMIYATI

Rahmonova Shoira Muhammadovna

Farg'on'a viloyati Buvayda tumani
7-maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachisi
Tel nomer: +998934514742

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni kasb-hunarga yo'naltirishning ta'lif tarbiyaviy ahamiyati haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: maktab, kasb, hunar, iste'dod, ta'lif, tarbiya, bola, ijod, o'yin, qobiliyat, imkoniyat.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lif tashkilotlarini oldiga qo'yilgan muhim vazifalaridan biri bolalarni, o'sib kelayotgan yosh avlodni kasbga bo'lib, kasbga yo'naltirishning bosh maqsadi kichik yoshdan boshlab, ongli ravishda kasb-hunarga oid bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdir.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lif to'g'risida”gi Qonun va “Ilk qadam” davlat dasturi talablarasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lif-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni istiqlol mafkurasi asosida sog'lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta'limga tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktab ta'limga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi ushbu yoshdagi bolalarga ta'lif-tarbiya berishning muhim jihatlaridan biri ularni kelajakda biror bir kasb yoki hunarning ustasi bo'lib olishlariga imkoniyat sharoit yaratib berishdir.

Bolalarda bog'cha yoshidan boshlab turli kasb-hunarga qiziqish mehr uyg'ona boshlaydi. Ayni shu vaqtidan boshlab bolani zo'rmasdan, qiziqtirib borishi unga yoqqan sohaning hayotdagi foydasini tushuntirib borish zarur. Shuning barobarida bolaga ma'suliyatli vazifa, yumushlar berib, bajarilishini nazorat qilib borish kerak. Boladagi tabiiy iste'dodning qirralari dastlab oilada ko'zga tashlana boshlaydi. Ya'ni o'zi bilan ichki munosabat o'rnata olgan bola asta-sekin atrofdagilar (ota-onা, aka-opa, tenqurlari, tarbiyachilar) bilan munosabatga kirishish imkoniyatiga ham ega bo'la boshlaydi. Ayniqsa o'yin jarayonidagi qiziqishlar bolani kelgusida muayyan kasablar doirasidagi munosabatlar olami sari chorlaydi. Bolalikdagи har qanday qiziqish kelgusida o'zining samarasini beradi. Ilmiy kuzatishlar shuni ko'rsatadi, bola qiziqishlari doirasida yetakchi munosabat kasbga xos odatlar hisoblanar ekan. Bola buni ongli yoki aksinchcha tarzda ifoda etadi. O'yin jarayonida bola “Transportda yuk tashishda” yangi mashinalarni sinovdan o'tkazadi, samalyot yoki kosmik kemada “parvoz” qiladi, doctor, o'qituvchi, tikuvchi, sartarosh, rassom, bog'bon kabilar misolida faoliyat ko'rsatadi. Bugungi bozor iqtisodiyoti munosabatlari davrida bolaning tafakkurini tarbiyalash, erkin fikrlash malakasiga ega qilib o'stirish jarayonida zamonaviy kasblar to'g'risidagi tushuncha va bilimlarni berib boorish davr ehtiyoji hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlangan vazifalarini amalga oshirishda har bir bolaning qiziqishi, mayli, qobiliyati va imkoniyatlari ayniqsa uning jismoniy, ruhiy, fiziologik holatlari alohida e'tibor talab qiladi. Biron-bir faoliyat turiga intilish kattalar mehnatiga taqlid qilish bolalarga hammabop mehnat malakalarini singdirish uchun qulay omil bo'lib xizmat qiladi. Bolalarga mehnatsiz hech narsani o'rganish yoki erishish mumkin emasligini, faqat mehnatdagina oddiy qo'llar “mohir qo'llarga” aylanishi mumkinligini singdirib borish lozim.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarni kasb-hunarga yo'naltirishda, ya'ni ular bilan kasbga oid ishlarni tashkil qilishda bolalarning yosh xususiyatlarini qo'llanadigan usullarning maqsadga muvofiqligi, tarbiyalovchi usullarning rang-barangligi, shuningdek, mashg'ulot o'tkazish yo'llarining zamonaviyligiga tayangan holda ish yuritish lozim. Maktabgacha ta'lif tarbiyalanuvchilari kasbga qiziqishining ijtimoiy ahamiyatga molik sabablarini shakllantirish uchun mashg'ulotlardagi tarbiyaviy ishlarda katta va keng imkoniyatlar mavjudki, bundan har bir tarbiyachi yoki pedagog oqilona foydalansagina ko'zlangan natijalarga erishish mumkin bo'ladi.



INGLIZ TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Yaxshimova Lobar

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 35- son

maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi

Tel + 99-897-362-68-36

lobaryaxshimova@gmail.com

Annotatsiya: Ingliz tili darslarida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo'llash, so'zlashish mahoratini oshirish, chet tili o'qitishning rivojlantiruvchi maqsadi to'g'risida fikr mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ingliz tili, zamonaviy axborot texnologiyalar, xorijiy tillar, AKT, interfaol metodlar, ta'lim jarayoni.

Hozirgi texnologiya rivojlangan bir davrda o'quvchilar AKT dan foydalanib o'tilgan darslarda diqqatli o'tiradilar. Xorijiy til o'rganuvshilarning diqqatini bir joyga jamlashda chet tili darslarini til o'rganish o'yinlarga va uslublarga asoslanib tashkil qilinishi talim jarayoni samaradorligini oshiruvchi omillardan biri deb hisoblayman. Hozirgi kunda chet tili fanini bolalarga o'rgatishda darsda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish juda muhimdir. Bundan ko'rinish turibdiki, chet tilidan dars beradigan har bir o'qituvchi zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalana olishi lozim. Tan olamizki ayrim o'qituvchilar komputerdan, axborot vositalaridan foydalana olishmaydi. Endi faqat darslik yoki 1 yoki 2 tarqatma bilan tashkil qilingan dars o'quvchilarni jalg qila olmaydi.

Radio, televizor, qo'l telefoni, internetdagi 100 lab ijtimoiy tarmoqlardan eng so'ngi ongni jalg qiluvchi usullarda axborot olayotgan o'quvchi oddiy usuldagagi darsga nari borsa 15 daqiqa qulq solishi mumkin, keyin esa uning qiziqishi qaytib, e'tibori bo'linadi va mavzuni tushina olmaydi. Aynan shuning uchun ham darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish bugunning asosiy talablaridan biridir.

Kodoskop, proyektor, magnitafon, kompyuter, internet, interfaol doska televizor kabi texnik vositalar darsning qiziqarli tashkil etilishiga yordam beradi. Chet tillarini o'rganishda multimediyalarning ahamiyati beqiyosdir. Birinchi Prezidentimizning 2012 yil 10 dekabrdagi PQ 1875 –sonli qaroriga muvoviq “Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish”dagi 12 banddan biri chet tili xonalarini zamonaviy jahon standartlari talablari asosida jihozlash bo'lib, buning ijrosi natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarimiz ular uchun oson bo'lмаган chet tillarini ravon va qulay o'rganmoqdalar. To'xtovsiz yoki ko'p muddatga bir xil texnik vositadan foydalanish ham o'quvchilar me'dasiga tegib, dars samarasini pasaytiradi va elektr energiyaning isrof bo'lishiga olib keladi. Qaysi texnik vositani darsning qaysi qismida, qanday topshiriq uchun qo'llash lozimligini o'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida belgilab olishi, foydalanish vaqt 3-7 daqiqa atrofida bo'lishiga, zarur material undan uzoq vaqtga mo'ljallangan bo'lsa, orada uzilish qilib, unga doir qiziqarli savol-javob, munozara o'tkazib olish zarur. Qanday holatlarda nimalar taklif qilinadi?

1. Chet tilida lug'atlarning talaffuzi, mazmuni o'rganiladi. So'zning ma'nosini anglarishda visual texnik qo'llanmalar ancha mavzuga mos kichik filmlar tomoshasi, uning muhokamasi ayniqsa ahamiyatlidir.

2. Talaffuzni o'rgatganda ko'proq tinglab tushinish vositalaridan foydalangan ma'qul.

3. Grammatik mavzularni tushintirishda vaziyatlar ko'rtilgan sahnalar, kichik jadval, sxema yoki nuqtalar o'rnini to'ldiradigan mashqlar projector orqali ko'rsatilib, har bir o'quvchining qatnashishi ta'minlansa, unum yaxshi bo'ladi.

4. Mustahkamlashda diologli, monologli yoki harakatli videolar foydalidir.

5. Qo'shiq o'rganishda tinglab yoki ham ko'rib, ham tinglab birgalikda kuylash, so'ng matn yordamida uyda takrorlash tez yodlash usullaridan biridir.

6. Takrorlash darslarida mavzuga mos kichik filmlar tomoshasi, uning muhokamasi o'quvchilarning chet tilini barcha nutq faoliyatlarini bog'lagan holda tushinislari, o'z fikrini bayon qila olishlari uchun ahamiyatlidir.

7. Uyga vazifa bajarish o'quvchilarning hammasiga ham yoqavermaydigan, zerikarli ish. Bunda fanga kamroq qiziquvchilarni ham jalg etish uchun o'tilgan mavzuga komputerda slayd



yaratish, internetdan ma'lumot topish, rasm chizish va taqdim qilish kabi topshiriqlar ularning uy ishi bajarishiga yordam beradi.

8. “Mening ovozim”, “Mening videom” kabi loyihalarni har qanday mavzuda qo'l telefonlari, magnitafon yoki kompyuter yordamida amalga oshirish mumkin, bu jarayonda o'quvchi sinf va o'qutuvchisi oldida taqdim qilishdan oldin o'z ishini tekshiradi, tahlil qiladi, xatolarini tuzatishga harakat qiladi va mukammallikka intiladi.

O'quvchilarni to`g'ri talaffuzga o`rgatishda barcha chet tili o'qituvchilariga lingofonlar o`rnatalgan xona kerak. Umid qilamanki, 2 yoki 3 yil ichida Respublikamizdagi barcha chet tili xonalari lingofonlar va interaktiv doskalar bilan ta'minlanib qolar.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati:

1. Xorijiy tillarni o`rgatishda rol o`ynash o`yinlari. 1989
2. R.Shodiyev. H. I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida.
3. “Xalq ta'limi” 2018. Xalq ta'lim 2014. “ilmiy metodik jurnal”.



CHET TILINI O’RGANISH USULLARI VA QIYINCHILIKLARI

Abdullayeva Maloxat SHerimmatovna

Xorazm viloyati Gurlan tumani
28-sون мактабнинг инглиз тили фани о’қитувчisi

Babajonova Kamola Atanazarovna

Xorazm viloyati Gurlan tumani
21-sон мактабнинг инглиз тили фани о’қитувчisi

Annotatsiya: Bugungi kunda chet tillarini o’rganish ommalashganini hisobga olsak, u tillarda gapirishni o’rganish har qaysi soha vakillari uchun foydali bo’lishi hech kimga sir emas. Ushbu maqolada chet tilini o’rganish usullari va unda yuzaga keladigan qiyinchiliklar to’g’risida mulo-haza yuritilgan.

Kalit so’zlar: chet tili, usul, til, ingliz tili, qiyinchiliklar, ijtimoiy tarmoq, madaniyat, gapirish, qiziqish, sabr.

Bugungi kunga kelib chet tillari, ayniqsa ingliz tili o’rganishga bo’lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki, bog’cha yoshidagi bolalardan boshlab katta yoshdagi mutaxassislargacha ingliz tili o’rganishga harakat qilyaptilar. Bu ijobiy holat albatta, chunki, til o’rganish o’sha tilda gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va урод одатларини o’rganish bilan birga shaxsiy manfaatlar yo’lida ham eshiklar ochilishiga zamin yaratadi.

Til o’rganuvchi o’quvchilar chet tilida tezroq gaplashishga urinishadi. Bu esa unchalik ham oson emas. Bunday vaziyatda ko’p jihatlarga e’tibor berish talab qilinadi. Avvalo, o’rganuvchi yoshi, qiziqishi va izchillik asosida til o’rganishga kundalik sarflaydigan vaqt miqdori, inglizcha muhit kabilar muhim bo’lsa, foydalilaniladigan darslik sifati, mahoratli va bilimli o’qituvchi va til o’rganishdagi to’g’ri yondashuv usullari kabilarning ham yangi til o’rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ba’zan, o’quvchilar til o’rganishdagi qiyinchiliklarini shu tilda gaplashuvchi chet davlatlarida bo’lishga sharoitlari yoki inglizcha gaplashadigan do’stlari yo’qligi bilan bog’laydilar. Aslini olganda esa, hozirgi texnologiya va internet rivojlanayotgan davrda bu kabi vajlar o’rinsiz bo’ladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda xususan facebook, twitter, telegram orqali onlayn darslar olish yoki YouTube va skype orqali video darslar ham til o’rganishda juda ommalashgan va qulay usullardandir. Til o’rgatuvchi o’quv kurslarining ham o’rni beqiyos. Chunki, guruhdagi boshqa til o’rganuvchilar bilan maqsadingiz bir va shu yo’lda bir-biringiz bilan inglizcha muloqot qilishingiz, ma’lumot almashishingiz yoki raqobatbardosh bo’lishingiz mumkin.

Yangi tilda gapira olish uchun hamma so’zlarni bilish muhim emas, hattoki ona tilimizda ko’p so’zlarni bilmasak ham juda yaxshi muloqot qila olamiz. Ingliz tilini o’rganishni maqsad qilgan inson o’zi uchun inglizcha muhit yaratishi ya’ni doimo inglizcha tinglab, o’qib, yozib va gapirishi maqsadga erishishning eng samarali usulidir.

Ko’pchilik insonlar “Maxsus til kurslariga borsam, albatta, chet tilini o’rganaman”, deb o’ylashadi. To’g’rirog’i, chet tili kurslarini o’z maqsadlariga erishishda ma’sul deb o’ylashadi. Bu umuman noto’g’ri fikr. Bu jarayonda har doim o’zingiz uchun o’zingiz ma’sulsiz, o’qituvchi o’rgatishi mumkin, ammo saboqning 99 foizi o’zingizga, 1 foizi o’qituvchiga bog’liq” deb takidlaydi mutaxassislar.

Chet tili o’rganish maqsadi yo’lida oxirigacha bora olmayotgan yoki bu borada muvaffaqiyatga erisholmayotganlarning bu borada yo’l qo’yadigan ba’zi bir xatolariga to’xtolib o’tadigan bo’lsak, insonlar doimo o’zlarini uchun qiziqarli va huzurbaxsh mashg’ulotlar bilan shug’ullanishga harakat qildilar va hattoki, vaqt qanchalik tez o’tganini ham sezmay qoladilar. Agarda, yangi til ham kuchli qiziqish va ishtiyoq bilan o’rganilsa, maqsadga shunchalik tez va oson yetishish mumkin. Biz esa, ko’pincha bu jarayonni majburiyat sifatida qabul qilamiz va natijada, yangi til o’rganish jarayoni biz uchun juda zerikarli tuyuladi. Natijada, siz uchun zerikarli bo’lgan mashg’ulotdan qochishga yoki kamroq vaqt ajratishga moyillik vujudga keladi. Aksincha, o’zingiz qiziqqan soha yoki mavzu bo’yicha yangi o’rganayotgan tilingiz orqali ma’lumot olishga, tinglashga, yozishga va gapirishga harakat qilsangiz, bu jarayon qanchalik qiziq ekanligini sezishingiz mumkin. Masalan, sport sohasiga qiziquvchilar o’rganayotgan tillari orqali sport yangiliklarini kuzatib borishi, shu tildagi sport sohasiga oid teleko’rsatuvlarni tomosha qilishi, yoki shu soha bo’yicha chet tilida



o’z fikrlarini bo’lishishi mumkin.

Yana bir ko’pchilik yo’l qo’yadigan xatolardan biri, bu noreal maqsadlarni oldiga qo’yish. Ayrimlar ish, o’qish tufayli yangi til o’ganishga kuniga yarim yoki bir soat vaqt ajratsayu, reja asosida esa ikki yoki uch soatlik vaqt belgilasa, kun oxiriga kelib ulgurolmagani uchun stresga tushishi yoki til o’ganishni butunlay tashlab qo’yishi mumkin. Bu esa, uzoq muddatda va sekin bo’lsa ham umuman to’xtatib qo’yishdan yoki stresga tushib foydasiz asabiylashishdan ko’ra, oz-ozdan o’rganib bo’lsaham maqsadga erishishni foydaliroq ekanligini ko’rsatadi. Shu o’rinda “Toshbaqa va quyon” haqidagi ertakni eslashni o’zi bunga yaqqol misol bo’la oladi. Garchi sekin bo’lsada, toshbaqaning sabri va maqsadga tomon sobitligi (perseverance) insonlarga o’rnak bo’la oladi.

Shuni ham qo’shimcha qilib aytish mumkinki, yaxshi kayfiyat, ijobiy ichki ruhiy kechinma va yaxshi hordiq ham chet tili o’rganishda katta ahamiyatga ega. Toni Robinsning aytishicha, “Eng yaxshi usul va qoidalar ham muvaffaqiyatning atigi 20 foizini tashkil etadi. Qolgan 80 foiz inson psixologiyasiga bog’liqdir”. Mutaxassislarning e’tirof etishicha, ijobiy ruhiy ichki kechinmani saqlab qolish va shakllantirish til o’rganishda qo’llaniladigan usullardan ham kuchli hisoblanadi.

Yana bir turdagи o’quvchilar borki, ular yuzlab kitoblarni yig’ib oladilar, lekin amalda ulardan deyarli foydalanmaydilar. Bunday o’quvchilarni, velosiped yoki moshina sotib olib, uning qismlarini, qanday ishlashi va minishni o’rganmaydigan kishiga o’xshatish mumkin. Har qanday kitobdagi tavsiyalar faqat amalda bajarilgandagina foydali bo’ladi.

Xulosa o’rnida shuni aytishim mumkinki, yangi til o’rganish majburiyat emas, sevimli mashg’ulot yoki xobbi sifatida qaralsa, uni o’rganish shunchalik osonlashadi. Bu jarayonga qanchalik moslashish yoki qiziqarli muhitni yaratish ko’pincha o’quvchining o’ziga bog’liq. Intizom, ma’suliyatlilik va sabrlilik esa har qanday yutuqning poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining ingliz tili darsliklari.
2. <https://medium.com>
3. OAV va internet malumotlari.



HARFLAR. UNDAN SO'Z VA GAPLAR TUZISH

Ibragimova Diloromxon Xolmirzayevna

Farg`ona viloyati Dang`ara tumani XTB tasarrufidagi
24-umumi o`rta ta`lim maktabi boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Ganijonova Lobarxon Yusupjonovna

Namangan viloyati Pop tumani XTB tasarrufidagi
14-umumi o`rta ta`lim maktabi boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Annotatsiya: boshlang`ich ta`limda og`zaki va yozma nutqqa e`tibor muhim masalalardan hisoblanadi. Mazkur maqolaning ushbu mavzuga qaratilishi ham ahamiyatlidir. Maqolaning asosiy maqsadi ham, ayniqsa, boshlang`ich ta`limda o`quvchi-yoshlarni og`zaki va yozma nutqini boyitishga qaratilgan va tavsya berishdan iborat.

Kalit so`zlar: ta`lim tizimi, islohot, shaxs, og`zaki va yozma nutq, ijodkorlik, shaxsga hurmat, yaratuvchanlik, intellektual (aqliy) salohiyat, so`z va gap, bo`g`in va qo`shimcha, qofiya, o`yin texnologiyasi, zamonaviy pedagog, hamkorlik.

Respublikamiz xalq ta`limi oldida turgan muhim vazifa har tomonlama yetuk bo`lgan, ijodkor va qobiliyatli, o`z yurti va xalqiga sodiq insonlarni kamolga yetkazish va tarbiyalash, voyaga yetkazishdan iboratdir. Buni amalga oshirishda xalq ta`limi tizimida xizmat ko`rsatayotgan barcha pedagog va hodimlardan o`z ishiga sodiqlik, ijodkorlik, shu qatori o`quvchi og`zaki va yozma nutqi ustida ishslash tamoyillarga qat`iy amal qilish talab etiladi. Bugungi kun o`quvchilari ilm-fan, ijod va qobiliyat kabilarga be`etibor emas, balki bo`layotgan o`zgarishlarga qiziquvchan, izlanuvchan, u haqda to`lqinlanib gapirishga izlanuvchan yoshlardir. Shuning uchun ham ularning nutqi aniq va ravon so`z va gaplardan tuzilgan bo`lishi, hamkorlikda ishslash, mustaqillikni ta`minlash ko`p jihatdan yaxshi samaralarga yetaklaydi.

Ta`limda o`quvchi nutqiga e`tibor bu – ta`lim jarayonining asosiy markazida o`quvchining og`zaki va yozma nutqi bo`lib, uning ravonligi, aniqlik darajasini yuqori o`ringa qo`yadigan, asosiy e`tiborni intellektual (aqliy) salohiyatini oshirish, dunyoqarashini boyitish, ma`naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratadigan pedagogik faoliyat turi.

O`quvchilarning nutqi ustida ishslash turlarini shartli ravishda quyidagilarga bo`lish mumkin:

- Harflar ustida ishslash;
- So`zlar bilan ishslash;
- Gaplar ustida ishslash;
- rivojlantiruvchi ta`lim, o`yin texnologiyalari interfaol ta`lim;
- hamkorlik ta`limi;
- individual ta`lim va ijodkorlik;
- bog`lanishli nutq ustida ishslash.

O`quvchining ijodkorligi va nutqiga yo`naltirilgan ta`limda o`quvchining nutqiy faoliyati pedagogik jarayon markaziga qo`yiladi, uning rivojlanishiga, so`z boyligining oshishi va tabiiy imkoniyatlarini ro`yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

O`quvchining ijodkorligi va nutqiga yangicha qarash orqali darslarning samaradorligi oshadi, o`quvchilar o`zi bilmagan holda o`yinlar orqali adabiyotga doir bilimlari boyib boradi.

Boshlang`ich sinf ona tili va o`qish savodxonligi darslarida “Harflar. Undan so`z va gaplar tuzish” mavzusidagi ushbu maqoladan foydalanish hozirgi kun talabidan kelib chiqib, 1-4-siflarda so`z, gap va bog`lanishli nutq tuzish va ular ustida ishslash topshiriqlari juda ahamiyatli hisoblanadi. Chunki rivojlangan davlatlarning metodikalarini amalga tatbiq etish maqsadida PIRLS, TIMES, PISA tadqiqotlarida ishtirok etmoqdalar. Yangi taxrirda joriy etilgan ona tili va o`qish savodxonligi darsliklari ham ana shu metodikalardan andoza olgan holda yaratilgan va o`quvchilarni ijodkorlikka va o`z qobiliyatlarini namoyon etishga yo`naltirilgan.

Yangi individual yondashuvning mohiyati shundaki, u ta`lim tizimida o`quv fanidan tayyor ma`lumot emas, o`quvchidan o`quv faniga ijodkorona yondoshishni talab etadi, o`quvchilarning mavjud imkoniyatlarni inobatga olib, ularni rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo`ladi.

Boshlang`ich sinf ona tili va o`qish savodxonligi darslarining har birida bitta “Mehmon harf” didaktik o`yinidan foydalanib, o`sha mehmon harf ishtirokida mavzuga oid soz, gap hamda



darslarning yengillik darajasiga qarab, bog`lanishli nutq ham tuzishlari mumkin. Masalan: “Harakat bildirgan so`zlar” mavzusiga oid sozlar topishda mehmon harf bilan boshlanuvchi so`zlardan foydalanish kerak bo`ladi (A harfi mehmon bo`lsa, “Ayasi Azizani allaladi” yoki “Laylak lolazorda lo`killadi” kabi).

Boshlang`ich ta`lim uzuksiz ta`lim tizimining poydevori hisoblanadi. Shuning uchun ham doimo barcha izlanivchi pedagoglar, olimlar, tadqiqotchilarning diqqat markazida bo`lib kelmoqda. Ta`limda o`quvchi nutqiga e`tibor, ularga individual yondashuv, mustaqillikni ta`minlash, hamkorlikda ishslash, erkinlik kabi yondashuvlar ertangi kun egalarida yangi-yangi qobiliyatlarni shakllantirish, iste`dodlarni ro`yobga chiqarishda muhim omil sanaladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-202-yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha harakatlar strategiyasi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi PF-4947-sonli Farmoni

2. Sh. Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent-O`zbekiston 2016

3. Sh. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent-O`zbekiston 2016

4. K. Qosimova, S. Matjonov, X.G`ulomova, Sh. Yo`ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o`qitish metodikasi. Toshkent “Noshir”-2009

Elektron ta`lim resurslari

1. O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi: www.uzedu.uz

2. Ijtimoiy axborot ta`lim portal: www.ziyonet.uz



CHET TILINI O’RGANISHNING OSON YO’LLARI

Ishchanova Mahliyo Raximbergan qizi

Xorazm viloyati Shovot tumani

51-umumiyl o’rta ta’lim maktabi

ingliz tili fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Chet tilida gapirish juda oson bo’lib, bu tilda gapirishga qiynalayotgan bo’lsan-giz, bu qiyinchilik faqat vaqtincha ekanligini unutmang! Tilda gapirishni, harakat qilishni kuchay-tirish orqali tez orada chet tilida aniq va ravon gapirishingiz mumkin. Ushbu maqolada ham chet tilini oson o’rganish uchun mutaxassislar tomonidan berilgan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: chet tili, muloqot, gapirish, tinglash, ingliz tili, dars, qo’shiq, o’qish, so’z birik-masi, xotira, yod olish, ibora, yon daftari.

Xorijiy tilni asosan muloqot uchun o’rganishadi. Ingliz tili ayni davrda juda ommalashganini hisobga olsak, ingliz tilida gapirishni o’rganish har qaysi soha vakillari uchun foydali bo’lishi mumkin. Har kim tilni turli usullarda o’rganadi. Barcha uchun bitta qoida amal qilishiga ishon-ish qiyin. Xorijiy tilda gapirishni o’rganish haqida gap ketganda esa tilni boshqa maqsadlarda, umumiy o’rganishga nisbatan farqli jihatlarga e’tibor qaratish zarurligini ko’rishimiz qiyin emas.

Hozirgi kunda o’z ona tilidan tashqari boshqa xorijiy tillarni ham bilish deyarli barcha so-halarning muhim talablaridan biri bo’lib bormoqda. Chet tilini mukammal o’rganishni istagan har bir inson uni o’zi mustaqil tarzda ham o’zlashtirsa bo’ladi. Ammo buning uchun inson psixologik jihatdan til o’rganishga tayyor bo’lmog’i lozim. Xorijiy tilni o’rganish kishidan ozgina qunt, mus-tahkam iroda va tartibga asoslangan kun rejasi talab etiladi.

Xorijiy tilda gapirishni hech qachon yozish yoki o’qish orqali o’rgana olmaysiz. Gapirishni o’rganish yaxshigina amaliyotni talab etadi. Ingliz tilida ko’proq muloqot qilishga harakat qiling. Do’stingiz bilan telefon orqali gaplashganda, kundalik muloqot davomida, dars vaqtida faqat ingliz tilida gapirishga harakat qiling. Ingliz tilida gapiradigan tanishlaringiz kam bo’lsa o’quv kurs-larida, ta’lim muassasalarida, yoki ijtimoiy tarmoqlarda siz kabi ingliz tilida gapirishni o’rganish ishtiyoqida bo’lganlar bilan tanishishingiz mumkin. Tilni jamoaviy o’rganish ancha oson kechadi.

Ingliz tilida qo’shiq ayting! O’zingiz yoqtirgan inglizcha qo’shiqlarning matnini internet orqa-li topish juda oson. Qo’shiq matniga qaragan holda homandaga jo’r bo’lib hirgoyi qilishingiz ham mumkin. Bu mashg’ulot sizga zavq berishi bilan birga ingliz tilidagi so’zlarni to’g’ri talaffuz qil-ishingizda, gapirish tezligingizni oshirishda yordam berishi mumkin.

Ingliz tilida gapirish bo’yicha darslarda qatnashing. Hozirgi vaqtida deyarli barcha sha-harlarning kutubxonalarida, oliy ta’lim muassasalarida va yoshlar makzalarida ingliz tili klublari bor. Guruhlarga a’zo bo’lgan holda ingliz tiliga qiziquvchilar bilan jonli muloqotlarda, muhoka-malarda qatnashishingiz mumkin.

Oson gapirish texnikalarini o’rganing. Har bir xorijiy tilda o’ziga xos gapirish texnikasi bo’la-di. Tildagi o’ziga xos ruh, faqat shu tilgagina hos bo’lgan jihatlarni o’rganib olish oson bo’lmasligi mumkin, ammo yaxshiroq harakat qilsangiz hamma narsaning imkonini topish mumkin.

Mutaxassislar tomonidan xorijiy tillarni o’rganishning 10 ta oddiy va oson yo’llarini keltirib o’tamiz:

1. Til bilan iloji boricha har kuni muntazam shug’ullanening. Bunda xuddi sport mashg’ulotlar-idagidek, ma’lum bir tizimga asoslangan holda mashq qilish muddati belgilanadi. Hech bo’lmasa, o’qish va yangi so’zlarni qaytarish uchun 10-15 daqiqa vaqt ajrating.

2. O’qish rejasini tuzing. Agar til o’rganish istagi vaqt o’tgani sayin susayib borsa, o’z shaxsiy algoritm o’quv rejangizni o’ylab chiqing. Misol uchun, ozgina dars qilgach, tanaffus e’lon qilib, musiqa tinglash yoki sayr qilish mumkin.

3. So’z birikmasi - yaxshi usul. Hech qachon alohida so’zlarni o’rganmang, faqat bir-biriga qo’shilgan, kontekst holatda o’rganing. Masalan, agar siz “strong wind” so’z birikmasini eslab qolgan bo’lsangiz, demak bir so’z ikkinchisini ham avtomatik tarzda yodda saqlashga yordam beradi.

4. Yon daftarcha tuting. Ushbu daftarchaga o’rgangan qo’shma so’zlaringizni, tayyor gaplarni yozib olish va ularni muloqotda ishlatalishga harakat qilish ham katta foya beradi.

5. Xotiraga muhrlang. Xayolan ko’zingizga ko’ringan barcha narsani- reklama, qo’shiq so’zla-



rina, dialoglarni, gazetadagi maqolalarning nomlanishini tarjima qilishga harakat qiling.

6. Yod olish - foydali mashq. Ammo faqatgina yuz foiz to‘g‘ri va o‘qituvchilaringiz tomonidan tekshirilgan so‘zlarni yod oling.

7. Iboralarni yodlang. Muomalada keng qo‘llanadigan so‘zlar, idioma, ibora va hikmatli so‘zlar ni yozib boring va zudlik bilan xotirangizda saqlang.

8. Nazariya bilan cheklanib qolmang. Har qaysi chet tilini faqat nazariy tomonidan, amaliyotdan ajralgan holda o‘rganish mumkin emas. Amaliy mashqlarga ham e’tibor qarating. Kino tomosha qiling, turli adabiyot va gazetalarni mutolaa qiling, ingliz tilida so‘zlovchi do‘stlaringiz bilan internet orqali suhbatlashing.

9. Xatolarni to‘g‘irlashga odatlaning. Xatolardan aslo cho‘chimang, to‘g‘irlab bo‘lmaydigan xatolardan qo‘rqing! Hech qachon va hech nimani nazoratsiz, tekshiruvtsiz qoldirmang.

10. O‘zingizga ishoning. Hech nimaga qaramay, til o‘rganishdan to‘xtamang!

Yuqoridaagi maslahat va amallarga rioya qilgan holda til o‘rganishni boshlasangiz, albatta, ko‘zlagan maqsadingizga yetishasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.Azamat.uz
2. www.lessons.fledu.uz
3. www.daryo.uz



O’ZBEK TILI DARSLARINING ADABIY O’QISH MASHG’ULOTLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI QO’LLASHNING SAMARALI USULLARI

Istamova Xurshida O’tkirovna,
Qosimova Zulfiya O’tkirovna
Buxoro viloyati G’ijduvon tumani
46-umumi o’rta ta’lim maktabi
Ona tili fani o’qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada 11-sin o’zbek tili darsliklarining adabiy o’qish mashg’ulotlarida shoir, yozuvchilarining hayoti va ijodi, nasriy hamda she’riy asarlarini o’quvchi ongiga yanada singdirish, dars mashg’ulotlarini qiziqarli tashkil etish, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib o’tish bo’yicha bir qancha tavsiyalar aytib o’tilgan va zamonaviy pedtexnologiyalarning afzalliklari ochib berilgan.

Kalit so’zlar: pedagogik texnologiya, innovatsiya, kompyuter, multemediya, she’riy, nasriy janlar, “Idrok xaritasi”, “FSMU texnologiyasi”, “VENN diagrammasi”, “Insert”, “T chizmasi”.

Keyingi yillarda davlat tilini o’qitishni takomillashtirish borasida ham ko’plab o’zgarishlar amalga oshirildi. Davlat ta’lim standartlari, o’quv dasturlari va darsliklarga kiritilgan o’zgartirishlar shular jumlasidandir. Ayniqsa, o’zbek tili darsliklarida qo’shimcha sifatida adabiy o’qish mashg’ulotlariga alohida qo’shimcha soatlar ajratilib, adabiy matnlar, yozuvchi shoirlarning hayoti va ijodi, ularning nasriy va she’riy janrdagi bolaning estetik tarbiyasiga ijobiy ta’sir etuvchi asarlari kiritildi. Chunki, o’quvchilarda ikkinchi tilni o’rgatish jarayonida faqat ona tilining qaysidir bo’limiga tegishli mavzularni o’tish yoki faqat grammatik topshiriqlar berish bilan o’quvchini dars jarayoniga qiziqtirib bo’lmasligi, ularda shaxsiy fikrlash qobiliyatları bunday usullar bilan shakllantirib bo’lmasligi anglab yetildi. Shu sababli o’zbek tili darslarida adabiy matnlar kiritilib, o’quvchilarining nutqiy kompetensiyalarining shakllanishiga, til o’rganishga bo’lgan qiziqishlarining oshishiga va albatta, o’zbek adabiyotining nodir va o’lmas asarlari bilan tanishib, o’zbek millatining o’ziga xos va mos milliy mentalititing namoyon bo’lishiga erishildi.

Alisher Navoiyning “Ikki do’st” haqidagi rivoyatini o’tishda “T” chizmasi usulidan foydalanish yaxshi samara beradi.

Avvalo, “T” chizmasi o’yin topshirigi haqida qisqacha ma’lumot va uning afzalligi. Bu topshiriq yakka tartibda o’rtacha 10 daqiqa vaqt oralig’ida bajariladi. Sinf o’quvchilarining barchasi o’z fikrini erkin bayon eta oladi. Eng asosiysi o’rganilayotgan mavzu bo’yicha ijobiy va salbiy fikrnai aytib va ajratib bera oladi. Kutilgan natija: O’quvchilar muayyan mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o’zlashtiradilar va o’zlari xulosa chiqaradilar. Masalan:

Ikki do’st

Qanoatli Sabrli muvaffaqiyatga erishdi qanoat qilgan podsho bo’ldi	Qanoatsiz Sabrsiz omadsizlikka duch keldi qanoat qilmagan xokisor bo’ldi.
---	--

Xulosa: Navoiy hazratlari aytganlaridek, “Kimki mehnat qilib alam tortishni istamasa, uning uchun sabr-u qanoat baridan yaxshiroq” yoki, “Xomtama inson bu dunyoda alam chekadi”. Demak , o’quvchilar bilan yuqoridagi texnologiyadan foydalansak, o’quvchi bemalol ikki do’stning xatti-harakatidan xulosa chiqargan holda ularning qaysi biri to’g’ri yo’l tutgan va qaysi noto’g’ri yo’ldan borib pand yeganligini anglab yetadi.

FSMU texnologiyasidan adabiy o’qish mashg’ulotlarining nasriy asarlarni tahlil qilish jarayonida foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan o’qituvchi ma’lum bir nasriy asarga oid bir tushunchani belgilab olishni taklif etadi va o’quvchilarga FSMU texnologiyasining 4 ta bosqichi yozilgan qog’ozlarni tarqatadi va guruh bo’lib javob yozsa ham bo’ladi yoki dastlab guruhdagi o’quvchilar yakka tartibda o’z fikrlarini bayon eyib, keyin guruhda tanlab olib fikrlarni umumlashtirib, himoyaga tayyorlasa ham bo’ladi. Ushbu texnologiyaning afzalligi: o’quvchilarni o’z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o’z fikriga boshqalarni ishontirishga, ochiq – oshkora bahslashishiga, egallagan bilimlarni tahlil qilishga o’rgatadi. Bu texnologiyadan O. Yoqubovning “Muzqaymoq” va T. Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” asarlarini o’tishda foydalansa bo’ladi.



Xulosa o’rnida aytish mumkinki, yuqorida o’zbek tili fanining adabiy o’qish darslarida tavsiya etgan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan dars jarayonlarini tashkil etishda foydalanib borilsa, ta’limda ko’zlangan maqsadlarga erishilgan va yetuk har tomonlama mukammal, ijodiy tafakkur sohiblarini yetishtirgan bo’lamiz. Zero, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: ... Bugun o’sib kelayotgan yosh avlod shunday bilim, tafakkur sohibi bo’lishi kerakki, ertaga u qo’rqmay Vatan yukini o’z zimmasiga ola bilsin va yurt uchun nimadir qila olishini isbotlasin.

Foydalaniłgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 25- yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagı ma’ruzasidan.- T.: 2017

2. Yo’ldosheva D. Ashurbayeva R. Ona tili ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.-T.: Turon Zamin Ziyo. 2018.



**MAKTABDA ADABIYOT DARSALARIDA “AQLIY HUJUM” USULIDAN
FOYDALANISH BO`YICHA TAVSIYA.**

Nurmatova Xusnida Usmonovna

Namangan viloyati Uchqo`rg`on tumani
2-IDUM ona tili va adabiyoti fani o`qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ”Aqliy hujum” metodi va undan ta’lim jarayonida foydalanish tartibi bayon etilgan. Hamda namuna sifatida 8-sinfda adabiyot darslarida ”Aqliy hujum” metodidan foydalanish bo`yicha tavsiya berilgan.

Kalit so’zlar. Aqliy hujum, adabiyot, muammo, ta’lim, fikr, metod, yozma, og’zaki, g’oya, vatan.

“AQLIY HUJUM” USULI - biror muammo bo`yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarini to`plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan usuldir. ”Aqliy hujum” usulining yozma va og’zaki shakllari mavjud. Og’zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o’z fikrini og’zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o’z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o’z javoblarini qog’oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko’rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. ”Aqliy hujum” usulining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo`yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu usul to`g`ri va ijobiq qo’llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandard fikrlashga o`rgatadi.

”Aqliy hujum” usulidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalg etish imkoniyati bo’ladi. Shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o’z fikrini faqat ogzaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko’nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g’oyalari shakllanishiga olib keladi. Bu usul ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. ”Aqliy hujum” usuli ta’lim beruvchi tomonidan qo`yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang’ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo`yilganda, bu usul darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog’lash maqsad qilib qo`yilganda -yangi mavzuga o’tish qismida amalga oshiriladi.

3. O’tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo`yilganda-mavzudan so’ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” usulini qo’llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g’oyalari muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g’oyalari, ular hatto to`g`ri bo’lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

Muammoli savol beriladi

Fikr va g’oyalari eshitiladi va jamlab boriladi

Fikr va g’oyalari guruhlanadi

Aniq va to`g`ri javob tanlab olinadi

“Aqliy hujum” usulining bosqichlari quyidagilardan iborat.

1.Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo`yicha o’z javoblarini (fikr, g’oya va mulohaza) bildirishlari so’raladi;

2.Ta’lim oluvchilar savol bo`yicha o’z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

3.Ta’lim oluvchilarning fikr-g’oyalari (magnitafonda, videotasmada, rangli qog’ozlarda yoki doskada) to’planadi;

4.Fikr-g’oyalari ma’lum belgilar bo`yicha guruhlanadi;

5.Yuqorida qo`yilgan savolga aniq va to`g`ri javob tanlab olinadi.

NAMUNA:

Adabiyot 8-sinf dasturida berilgan Ozod Sharafiddinovning ”O’lsam ayrimasman quchoqlaringdan” maqolasi mavzusini o’tishda ”Aqliy hujum” usulidan foydalanib, quyidagi so’zlar asosida o’quvchilarning yangi mavzu yuzasidan fikrlarini umumlashtirish mumkin.



O`qituvchi mavzuni tushuntirib bo`lganidan so`ng, ushbu parchani o`quvchilarga o`qitadi.

Maqolada muallif, “*Adibning eski jo`vadagi ko`rimsiz, torgina, kichik zalda eshitgan Uyg`un qalamiga mansub,*

*Vatan – ona so`zi naqadar laziz,
Sensan har narsadan mo`tabar aziz,
Hikmatingni saqlar har bir o`g`il-qiz,
Muqaddas, mo`tabar, ulug` Vatanim,
O`lsam ayrilmasman, quchoqlaringdan.*

ushbu shehr haqida, hayajon bilan quyidagicha; “...shehr misralari ayniqsa, har bir band oxirida takrorlanayotgan “O`lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” degan ibora go`yo yuragimda tug`ilib, ichimdan jo`shib chiqayotgandek, uchta oddiy so`zdan tarkib topgan bu otashin xitob shehr emas, butun umr amal qiladigan tantanavor qasamday jaranglardi.

Keyin chindan shunday bo`ldi....” –deb yozgan.

Quyidagi matnni o`qituvchining o`zi o`qib beradi.

Ilova:

“Jahon keng, dunyoda mamlakatlar ko`p. Lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O`zbekistonimiz yakka-yu yagona. Bu go`zal yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga atalgan. Mana shu ulug` tuyg`u har birimizning hayotimiz mazmuniga aylanishini istardim. Biz shunday ma`naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko`zimizni, qalbimizni yashnatib tursin. (I. Karimov. “Yuksak mahnaviyat – yengilmas kuch” asaridan.)

Savol: Xo`sh, muallif nega “O`lsam ayrilmasman quchoqlaringdan”degan, sizning fikringizcha quchog`i nima ekan.

O`quvchilar ikki matn bilan tanishib bo`lgach, yaxshigina tortishib fikrlashadilar, bir vaqtning o`zida maqola matni bilan birga unga bog`liq yurtimiz sarhadlari, buyuk qadamjolari haqida o`quvchilarni mavzu ichiga chiqurroq olib kirishni nazarda tutadi.

Bu usulning tanlanishidan maqsad shuki, o`quvchilar orasida do`stona muhitni vujudga keltirish, ona Vatanni sevish va uning tuprog`ini e`zozlash, tabiatga va atrofimizdagi har bir mavjudotga nisbatan mehr tuyg`ularini uyg`otishdan iboratdir.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. S. Alimov, S Ahmedov, R. Qo`chqarov. Adabiyot. Umumta`lim maktablarining 8-sinflari uchun darslik. Toshkeny. “G`ofur G`ulom nashriyoti”. 2014 yil.



A SOCIOLINGUISTIC APPROACH TO THE MEDIA TEXT

Orazgalieva Ayjamal Maratovna

student for master's degree of Uzswlu

+998913923137

orazgalieva.ayjamal@mail.ru

Scientific supervisor - Azizov Ulugbek Botirovich

Phd, Uzswlu

Key words: sociolinguistics, media linguistics, media text, news, loanwords

Annotation: This article deals with the sociolinguistic approach to the media texts in both Karakalpak and uzbek languages analyzing the real news texts on the Internet sites and studies the etymology of these words from English. In the article, it is discussed the importance of studying the Media news texts defining with the views of linguists from different countries.

The sociolinguistic approach to media text requires taking into account a complex of problems, such as «language and society», the relationship of words and concepts, sociolinguistics and media linguistics. I.I. Sreznevsky said “Every word is a representative of the concept that was in the people: what was expressed by the word, that was in life; what was not in life, there was no word for that. Every word for a historian is a witness, a monument, a fact in the life of people, the more important the concept they express»[1, 76]

The study of the media text of any languages is possible to use a sociolinguistic approach due to the fact that the evolution of these new mediums of communications has raised much concern with regard to the way language is being used by people. According to David Crystal, these concerns are neither without grounds nor unseen in history – it surfaces almost always when a new technology breakthrough influences languages; as seen in 15th century when printing was introduced, the 19th century when the telephone was invented, 20th century when broadcasting began to penetrate our society [2, 58] and every change and impact on the language due to any breakthroughs or time is closely connected to the people, society in the long run and it must be the main focus to study for sociolinguistics at present time.

Furthermore, The rapid growth of digital technologies has become one of the reasons for the emergence of a new interdisciplinary direction in science, which considers news texts in the context of a single information space, combined with linguistic and extralinguistic factors, and which today stands out as a separate scientific branch — media linguistics. With the development of a new discipline, the terminological base is updated; along with «*media speech*» and «*media texts*» and as an important part of them, news texts are studied. «Media linguistics is turning into a powerful direction media research, because with all the variability of the media sphere, its main the sphere-forming moment remains the language. In uzbek and karakalpak scientific usage, the term «*media linguistics*» appeared relatively recently, somewhat earlier, his English-language version of «*media linguistics*» appeared, which can be found in the works of British researchers of the language of mass media, in particular, in the article by John Corner «The Scope of Media Linguistics», which can be considered programmatic, since it defines the subject and tasks of media linguistics for the first time. Singling out media linguistics as an independent scientific direction, the subject of which is the study of the language of mass media John Corner notes its interdisciplinary nature: «Media linguistics has united a wide range of studies related to such a dynamically developing field as the language of mass media. Today, there is a lot of literature devoted to the language of mass media, and often these studies are interdisciplinary in nature. Various genres of media speech are analyzed, for example, news discourse, documentaries and advertising. There is a growing understanding that the language of the media does not remain the same in every single media outlet information, but interacts with other semiotic systems. According to the understanding of the functional and stylistic differentiation of language, based on the teaching of academician V.V. Vinogradov about the styles of language and speech, the author has four types of media texts studied on the «message - impact» scale is as follows:

- 1.News
- 2.Comment
- 3.Features
- 4.Advertising

And among them, A special place in the media system is occupied by news. The significance of news lies in its leading role in the information life of society. Information about important



political, social, and economic events affect the life of every person. The influence of the news stream on the individual and society is enhanced by the repeatability and reproducibility of news.

Being the most reproducible and repeatable texts of the Internet media, news texts are influenced not only by sub-standard layers of the Russian spoken language, but also by different layers of vocabulary of other languages. The term «borrowing» is ambiguous. It denotes the result of contacts of multilingual people and the process of transferring elements from one language to another [3. 24]. In addition, foreign words are called borrowing. And finally, borrowing denotes both the process and the words. In both uzbek and karakalpak linguistics, there are the following problems regarding borrowings: which word should be considered a borrowing; the reasons for borrowing; varieties of foreign-language units; ways of mastering a word in a borrowing language; exactly what are calques and others.

Defining the types of foreign-language words, L. P. Krysin identifies borrowed words, exotic vocabulary and foreign-language inclusions [3, 57,58].

Having analyzed uzbek headlines of online publications «Kun.uz», “daryo.uz”, «UzA.uz», «qalampir.uz», we investigated the borrowed words found in them (in fifteen news texts). In order to determine their variety, it is necessary to analyze their lexical meaning, origin and functions of the selected lexemes: “LG kompaniyasi **smartfon** ishlab chiqarishni to’xtatdi” (daryo.uz); “O’zbekistonda **krossover** mashinaringning narxlari elon qilindi” (xabar.uz); “Kevin Mitnik yana bir **xaker** – Lenni Di Chikko bilan hamkorlikda ishlay boshhladi..... bu voqeа shunchaki **xakerlar** o‘g‘irlangan pulni bo‘lisha olmagani ortidan kelib chiqqan degan versiyani ilgari surdi” (daryo.uz); “Endi Agrobank tizimidagi xabarlarni telegram, **Instagram** va facebukda kuzatib borishingiz mumkun” (kun.uz); “Mirziyonomika kitobi **plagiat** mahsuli ekanligi aytilganida, Kitob muallifi Behruz Hamzayev Kun.uz’ga bergen intervyusida “Mirziyonomika”ni yozishda Rossiya nashri va boshqa manbalardan foydalanganini tan oldi, biroq bu **plagiat** hisoblanmasligini ta’kidladi (kun.uz); “Samarqand viloyatida **repperlar** janjali yuzasidan ish qo’zg’atildi” (qalampir.uz); “Hindiston bosh vazirining **Twitter akkaunti xakerlar** tomonidan buzildi. Unda **bitkoin** qonuniylashtirilgani haqida tvit paydo bo‘ldi”(kun.uz)

And from karakalpak headlines of online publications such as “Karinform.uz”, “kruz.uz”, “Kar24.uz”:

«**Смартфонның** қасына банк картасын қойыў қәўипли ме? Қенигелер не дейди?» (karinform.uz); «**Кроссовер** машиналарының имканиялары хақында билип алышың» (karinform.uz); «Өзбекстан сайтларына неше мэрте **хакерлик** хұжимлер болғаны мәлим етилди» (karinform.uz); « Өзбекстандағы текстли **плагиатларды** анықлау ушын ислеп шығылған биринши система хақында билесиз бе?» (karinform.uz); «Мәлімлеме ҳәм ғалабалық коммуникациялар агентлиги директоры Комил Алламжонов **Инстаграмдағы** өз бетинде рәсмий баянат жасады» (karinform.uz); «Комментарий қалдырған пайдаланыўшылардың 56 проценти өз **аккаунтына** кире алмай атырғанын билдирген» (karinform.uz); «**Реппер** болған уакыя бойынша рәсмий баянат жасады» (Kar24.uz);

In conclusion, having analyzed above mentioned examples, it is possible to say that the study of media news texts are being one of the actual issues in the current Linguistics and particularly, the loanwords stayed widespread among the news texts and influencing the speech of the Karakalpak and uzbek speakers in different way. Therefore, it is immeasurably pivotal to analyze each loanword that are being borrowed from different foreign languages make them closely connect to the People, society or from the sociolinguistic point of view.

References

1. Поливанов Е.Д. Статьи по общему языкоznанию. — М: Наука, 1968, 376 с
2. Crystal David. The scope of Internet Linguistics. Paper presented at the American Association for the advancement of science meeting on 2011-07-26.
3. Крысин, Л. П. Современный русский язык: Социальная и функциональная дифференциация / Л. П. Крысин. — М.: Языки славянских культур, 2003. — 568 с.
4. Local news sites: Kruz.uz, Kun.uz, Kar24.uz, Karinform.uz
5. Dictionary.cambridge.org
6. www.etymology.com



NEMIS VA INGLIZ TILILARNI O’RGATISHDA DIDAKTIK MATERIALLAR VA
VIDEO FILMLARNI QO’LLASH

Qosimova Mavluda Navro’zovna

Toshkent davlat texnika Universitet Olmaliq filiali
“O’zbek tili va adabiyoti” kafedrasи katta o’qituvchisi

Toshpo’latov Sarvar

1b-20Met guruh talabasi

Tel: 93-430-05-18

Annotatsiya: Bu maqolada asosan darslarda didaktik matreallardan foydalanish ,videofilm orqali darslarni qiziqarli olib borish usullari ko’rsatilgan.

Kalit so’zlar: Didakrik matreallar, videofilm, samaradorlik, aktiyorlik mahorati , ertak qahramonlari, monologik va dialogik nutqlar.

Davlatimiz tomonidan ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni isloh etishga katta ahamiyat berilmoqda. Buning sababi albatta hozirgi kunda o’quvchilarga ta’lim va tarbiya berish, ularni har tomonlama rivojlantirish va mustaqil fikrlovchi barkamol avlod bo’lib yetishlariga katta e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda chet tillarini o’rgatish dolzarb masala sifatida davlatimiz tomonidan ilgari surilib, yangi chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

“O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarini o’rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlar to’g’risidagi PK-1875 sonli qarorini chirqagan bo’lsa, chet tillarni o’rgatish sifatini yuksaltirish maqsadida , yana keying yillar davomida O’zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi chet tililarni rivojlantirish uchun bir nechta qarorlar chiqardi. Shu jumladan O’zbekiston Respublikasi xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish choratadbirlari to’g’risidagi 2021yil 19-may №PQ-5117 qarori chiqdi. Qarorga asosan Xorijiy tillarni o’rgatishni ta’lim siyosatining ustuvor yo’nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo’nalishda ta’lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholinng xorijiy tillarni o’rganishga bo’lgan qiziqishini oshirish maqsadida chiqarilgan. Shu qarorlarga amal qilgan holda zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli xil usullaridan darslarda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chet tili darslarida didaktik materiallar va video filmlarni qo’llash, chet tilini chuqur o’rganish uchun zarur.

O’quvchilarga chet tillarni o’rgatishda oddiy, an’anaviy usulni chetlab o’tgan holda darslarni qiziqarli olib borish lozim. Chunki o’quvchilarni chet tillarni tezroq o’rganish samaradorligini oshirish asosiy maqsad hisoblanadi. Tillarni o’rgatishda darslarni to’g’ri tashkil etish muhim bo’lib, o’quvchilarni zeriktirmasdan turli xil usullarda darslarni olib borish kerak. Darslarning butun g’oyasi shunga qaratilmog’i va til o’rgatishda oddiy usulga tayanib qolmasdan, balki har bir darsda yangi usuldan foydalanib, yangi elementlarni kiritish muhim jixatlardan biridir. Darslarda, ayniqsa, o’quvchilarga didaktik material yoki videofilmlar orqali o’tilgan darslar juda yoqadi va qiziqarli bo’ladi. O’qituvchi dars o’tish jarayonida aktyorlik mahoratiga ega bo’lmog’i va uni dars davomida yuqori saviyada namoyon etmog’i lozim. Quyi sinf o’quvchilariga dars o’tish jarayonlarida qo’g’irchoq qahramonlar va videofilmlar asosida dars olib borish muhim ahamiyatga ega. Darslarda ertak qahramonlari tashrif buyuradilar. Masalan: Masha va Momiqvoy, (Mascha und Bär) Tulki va Bo’ri, (Fuchs und Wolf) Buratino, Malvina, (Buratina und Malvina) Bo’ri va Quyon, (Wolf und Hase) Qizil shapkacha va Bo’ri, (Rote Hütlein und Wolf) Oppog’oy, (Schloßweiss) Zolushka, (Aschenputtel) Qor Malikasi, (Schneekönigin)

Tom - Jerry va boshqalardir. Bu qahramonlar o’quvchilarga qizqarli bo’lganligi uchun har bir o’quvchiga alohida rol bo’lib beriladi. O’quvchilar o’zlariga berilgan rollarni mahorat bilan ijro etishga harakat qiladilar. Misol sifatida bir darsimizda niqobli qahramon roli ijro etilib, u o’zi haqida chet tilida so’zlab beradi. Bu qahamonning nomi Buratino bo’lib: My name is Buratino. I came is London. I am 12 year old. Ich heisse Buratino. Ich komme aus Deutschland. Ich bin 12 Jahre alt. 2-qahramonning nomi Malvina bo’lib, u ham o’zi haqida nemis va ingliz tilida so’zlaydi: Ich heisse Malvina. Ich komme aus Berlin. Ich bin 12 Jahre alt. Meine Familie ist gross. Meine Familie haben Vater, Mutter, Bruder, Schwester und ich. My name is Malvina. I came is London. I



am 12 year old. Shu bilan birgalikda darsimizga Buyuk Britaniya va Olmoniyadan muxbirlar ham tashrif buyurib, darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni o'z sovg'alari bilan taqdirlaydilar.

Shu asosida o'quvchilarning og'zaki nutqlari o'sadi va so'z boyliklari ortib boradi. Shuni aytish mumkunki bunday darslar o'quvchilarda ahloqiy -tarbiyaviy jihatlarini takomilashtirishga ham o'z hissasini albatta qo'shadi.

. Chunki o'quvchilar ijro etgan ijobiy va salbiy qahramonlardan o'rnak oladilar. Bu kabi darslar oquvchilarning monologik va dialogik nutqlarini o'sishini yuqori darajaga olib kelishga xizmat qiladi. Bu kabi darslardan o'quvchilar ma'naviy oziqa oladilar o'zlariga xulosa chiqaradilar. Rollar ijro etishni o'rgatishda o'quvchilarni grammatik bilimlarini ham mustahkamlashga ahamiyat beriladi. Yana darslarda qisqa metrajli,qiziqarli filmlarni dars jarayonida qo'llash tilni o'rgatishda muhim jihat bo'lib xizmat qiladi. Darslarda tasvirli va voqeali filmlardan foydalaniлади. Turli xil holatlar tasvirlangan ("Bizning oila", (My Family, Meine Familie.) "Vatan", (Motherland, Heimat,) "Sayohat", (Travel, Reise) "Mening do'stim" (My Friend, Mein Freund) kabi filmlar yoritiladi. Bu singari filmlar o'quvchilarni o'g'zaki nutqini, tinglab tushunish va so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga katta yordam beradi. Negaki, o'quvchilar bu filmlarda bo'ladigan suhbatlarni tinglab, uni o'gzaki tarzda qaytarishga harakat qiladilar. Bu esa so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga olib keladi. Zeroki, ming marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan afzal maqoliga amal qilgan holda darslar o'tiladi. So'ngra o'quvchilar bilan ko'rgan filmlarini, undagi voqealar asosida chet tilida muloqat bo'ladi va har bir o'quvchi o'z fikrini bayon etadi. Shu filmlar asosida o'quvchilarni yanada chet tilini o'rganishga qiziqishlarini orttirib, ularni bilim olish saviyasini oshiramiz.

Xulosa qilib aytsak, yuqorida ko'rsatilgan usullar har tomonlama o'quvchilarni chet tiliga bo'lgan mehrini oshirib, ularni tilni tez va oson tarzda mukammal o'rganishlariga yordam beradi. Bu kabi darslarni qo'llash chet tillarini o'rgatishda samarali, qullay va har tomonla oson usullaridan biri ekanligi ko'rsatib o'tildi. Bundan tashqari har bir o'quvchini faolligini oshiradi va mustaqil fikrlab, o'z fikrlarini erkin bayon etishga ham xizmat qiladi. Shunday ekan, chet tilini o'rgatib, iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar tarbiyalash har bir chet tili o'qituvchisining muhim vazifasidir. Shuning uchun ham biz o'qituvchilar o'quvchilarga dars o'tish jarayonini soddallashtirish chora tadbirlarini ko'rib chiqdik va yuqorida ko'rsatilgan usul yaxshi samara berishini inobatga olgan holda darslarda shu usulni qo'llashni tavsiya etamiz.

Foydalilanigan Adabiyotlar.

- 1.Pander Klaus.Kohn.Buchverlag.1996.
- 2.Sardinowa B.Deutsch lernen mit.Toshkent,"O'qituvchi"2004.
- 3.Krasilschikowa K.J.Gesprächthemen.Sankt Peterburg. 2003.
- 4.Asadulina F.M. Deutsch.Toshkent.1979.
- 5.Sabine Federica.Emmerich Colombo.Deutsch lernen mit Spielen und Rätseln. Deutschland.2003.
- 6.Tangram I.B.Deutsch als Fremdsprache.Ismaning,Deutschland.2002.
- 7.M.Muller,P.Rusch-Optimal B.I.Lehrbuch.Munchen-2006.
- 8.S.Saidow.Deutsche Grammatik in Mustern.T.Oqituvchi.1990.



**ONA TILI VA ADABIYOT DARS MASHG’ULOTLARIDA YANGI PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARINI QO’LLASHNING SAMARALI USULLARI**

**Raxmonova Gulruh Qaxorboyevna,
Shukurova Muhabbat Mansurovna.**
Buxoro viloyati G’ijduvon tumani
46-umumi o’rta ta’lim maktabi
Ona tili va adabiyot fani o`qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars mashg’ulotlarini o’tish bo’yicha bir qancha tavsiyalar aytib o’tilgan va zamonaviy pedtexnologiyalarning afzalliklari o’chib berilgan.

Kalit so’zlar: pedagogik texnologiya, “FSMU texnologiyasi”, she’riy, nasriy janrlar.

Keyingi yillarda ona tilini o’qitishni takomillashtirish borasida ham ko’plab o’zgarishlar amalga oshirildi. Davlat ta’lim standartlari, o’quv dasturlari va darsliklarga kiritilgan o’zgartirishlar shular jumlasidandir. Ayniqsa, o’zbek tili darsliklarida qo’shimcha sifatida adabiy o’qish mashg’ulotlariga alohida qo’shimcha soatlar ajratilib, adabiy matnlar, yozuvchi shoirlarning hayoti va ijodi, ularning nasriy va she’riy janrdagi bolaning estetik tarbiyasiga ijobiy ta’sir etuvchi asarlari kiritildi. Chunki, o’quvchilarda ikkinchi tilni o’rgatish jarayonida faqat ona tilining qaysidir bo’limiga tegishli mavzularni o’tish yoki faqat grammatik topshiriqlar berish bilan o’quvchini dars jarayoniga qiziqtirib bo’lmasligi, ularda shaxsiy fikrlash qobiliyatları bunday usullar bilan shakllantirib bo’lmasligi anglab yetildi. Shu sababli o’zbek tili darslarida adabiy matnlar kiritilib, o’quvchilarning nutqiylarini kompetensiyalarining shakllanishiga, til o’rganishga bo’lgan qiziqishlarining oshishiga va albatta, o’zbek adabiyotining nodir va o’lmas asarlari bilan tanishib, o’zbek millatining o’ziga xos va mos milliy mentalititining namoyon bo’lishiga erishildi.

Hozirgi kun davr talabi bo’lgan zamonaviy, ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalanilsa, samaradorlikka erishilgan bo’ladi. Chunki bugungi kundagi innovatsiyalar, turli xil va shakldagi texnologiyalarning barchasi o’quvchi faolligini oshirishga, o’z fikrini erkin bayon eta olishiga, guruh bo’lib ishslash jarayonida o’zgalar fikrini tinglay olishga va to’g’risini tanlab ayta olishga qaratilgandir. Shu nuqtayi nazardan adabiy o’qish darslarida foydalanilsa yaxshi natijaga erishiladigan bir qancha zamonaviy pedtexnologiyalar bilan tanishtirib o’tamiz.

FSMU texnologiyasidan adabiy o’qish mashg’ulotlarining nasriy asarlarni tahlil qilish jarayonida foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan o’qituvchi ma’lum bir nasriy asarga oid bir tushunchani belgilab olishni taklif etadi va o’quvchilarga FSMU texnologiyasining 4 ta bosqichi yozilgan qog’ozlarni tarqatadi va guruh bo’lib javob yozsa ham bo’ladi yoki dastlab guruhdagi o’quvchilar yakka tartibda o’z fikrlarini bayon eyib, keyin guruhda tanlab olib fikrlarni umumlashtirib, himoyaga tayyorlasa ham bo’ladi. Ushbu texnologiyaning afzalligi: o’quvchilarni o’z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o’z fikriga boshqalarni ishontirishga, ochiq – oshkora bahslashishiga, egallagan bilimlarni tahlil qilishga o’rgatadi. Bu texnologiyadan O. Yoqubovning “Muzqaymoq” va T. Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” asarlarini o’tishda foydalansa bo’ladi.

F: T. Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi polvonlar hayotiga bag’ishlanga asardir.

S: Qissada o’zbek milliy kurashining sir-u asrorlari va uning mohir kurashchilari Bo’ri polvon, Nasim polvon va ularning sulolasi taqdirlari misolida aks ettirilgan.

M: ... Polvonlik bizga ota meros, pushtdan pushtga, qondan qonga o’tib kelyapti. Polvonlikning ko’zga ko’rinmas, til bilan tushuntirib bo’lmas shunday sirlari borki, buni faqat tomirida polvonlik qoni borlargina biladi...

U: Demak, Tog’ay Murod o’zining “Yulduzlar mangu yonadi” asarida o’zbek xalqining qon-qoniga, shuuriga singib ketgan mardlik, jasorat, odamiylik, adolatlilik va oliyjanoblik sifatlarini polvonlar misolida tasvirlab berib, milliy kurashimizning o’ziga xos jihatlarini o’chib bergen.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, yuqorida o’zbek tili fanining adabiy o’qish darslarida tavsiya etgan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan dars jarayonlarini tashkil etishda foydalanib borilsa, ta’limda ko’zlangan maqsadlarga erishilgan va yetuk har tomonlama mukammal, ijodiy



tafakkur sohiblarini yetishtirgan bo’lamiz. Zero, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: ... Bugun o’sib kelayotgan yosh avlod shunday bilim, tafakkur sohibi bo’lishi kerakki, ertaga u qo’rqmay Vatan yukini o’z zimmasiga ola bilsin va yurt uchun nimadir qila olishini isbotlasin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ne’matova G. Ashurbayeva R. Yo’ldosheva D. Maktabda ona tili darslarini adabiyot, biologiya mavzulari bilan bog’lab o’qitish.- T.: Muharrir,2019.
2. X.S.Muxitdinova, G.Z.Muhammedjanova, F. S. Talipova, R.B. Eshbayeva. O’zbek tili. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 11- sinf uchun darslik.-T.:Davr,2018.



SALBIY EMOTSIONAL BIRLIKLER TAHLILIGA DOIR
(*A.Qodiriyning “Mexrobdan chayon” romanini misolida*)

Xolmanova Sh.

SamDCHTI magistranti

Anotatsiya: Ushbu maqolada Mexrobdan chayon romanida salbiy emotsiyonal birliklarga xos tahlillar haqida fikr yuritiladi.

Annotation : This article discusses the analyzes specific to negative emotional units in the novel Mehrobdan chayon..

Kalit so’zlar: emotsiyonal birliklar; so’z, gap, ibora, maqol.

Keywords: emotional units, word, sentence, phrase, proverb.

Abdulla Qodiriy tilga olinganda bir entikib, hayratlar bilan Otabek va Kumish, Anvar va Ra’nolarni taqdirini esga olmaydigan o’zbek ziylisi, adabiyot muhlisi bo’lmasa kerak. Adibning badiiy so’zida betakror tasvirlash, jozibasi borligi sabab uni takror – takror o’qisanggiz ham , o’qiyverasiz. Ushbu tahlil obyektimiz ham o’zbek adabiyotining betakror yozuvchisi Abdulla Qodiriyning “Mexrobdan chayon” romanini hisoblanadi. Tahlilimiz davomida Abdulla Qodiriyning “Mexrobdan chayon” romanida obraz gaplarida salbiy emotsiyani ifodalovchi ibora, gap va so’zlarni ko’rib chiqamiz. Ushbu romanda muallif va obraz gaplarida uchragan salbiy hissiyotlarni ifodalovchi frazeologik birlik (ibora), gap va so’zlarni tahlil qilamiz.

Qurib ketkurlar... Shuning uchun ham senlarning oldingg’ a kirmg’ kelmaydi-da! (AQMCН-135b). Personajning yonidagi insonlarga nisbatan “qurib ketkurlar” deya murojaat etishi, hummatsizlik hisoblanadi. “Qurib ketmoq” bu salbiy ma’noga ega bo’lgan frazeologizm (ibora) hisoblanadi. “Qurib ketmoq” iborasining ma’nosи – yo’q bo’lmoq, g’oyib bo’lmoq kabi ma’nolarni anglatadi.

Hatto ba’zi vaqt ikki og’iz so’z bilan qaytib chiqqan kishidan ham bir narsa undirishka tirishar, “mishiq oftobga tekin chiqmaydi, sizdan aqcha so’rashqa iy manganda, menga bir narma tashlab ketsangiz o’zim unga berib qo’yarman” (AQMCН 151-bet). Solih Mahdum nutqidan olingen bu jumladagi mishq oftobga tekinga chiqmaydir maqoli hozirgi tilimizda qo’llanilayotgan “Mushuk tekinga oftobga chiqmaydi” maqoli bilan mos keladi. Bu maqol orqali adib Solih Mahdumning xasisligi bilan birga ta’magirligini, Anvarning nomidan ish qilib ham daromad topishidan toymaydigan inson ekanligini tasvirlab bergen. Ushbu maqoldan ko’rinadiki, Mahdumning xasisligi va tamagirligi maqolda salbiy bo’yoqdorlikning oshirgan.

Bizga ma’lumki, Abdulla Qodiriy buyuk romanavis adibdir. Uning har bir romanida xalqchillik, o’zbek tilining nozik jilvalari o’z aksini topadi. Shu jumladan, “Mehrobdan chayon” romanida xalqona so’zlarning, barqaror birikmalarning go’zal namunalarini ko’rishimiz mumkin. Barqaror birikmalar deganda maqollar, matallar va iboralar tushuniladi. Maqollar grammatik jihatdan fikrni bildiruvchi kichik, ixcham, o’tkir mazmunli ko’chma ma’noda ham o’z ma’nosida ham qo’llanuvchi xalq iboralaridir Maqollar nutq ta’sirchanligini amalga oshirishda fikrni lo’nda va aniq ifodalashda juda qo’l keladi. Abdulla Qodiriy ham maqol va matallardan asarda juda o’rinli foydalangan. Bu orqali asarning xalqchilligini, haqqoniyligini ta’minlashga xizmat qilgan.¹

To’g’rida Mirzo Anvar, qo’li sust kosibdan oyog’i chaqqon gadoy yaxshi emish. (AQMCН-155b). Bu maqolni keltirish orqali adib Solih Mahdumning bekitib bo’lmaydigan xasis va betoqat inson ekanligini juda ustalik bilan tasvirlagan. Bu vazifani albatta xalq maqoli bajargan. Asarda adib ba’zi maqollarni qahramonlar tilidan keltirgan va qahramon xarakteriga moslab maqolni sodda tarzda yoki aksincha murakkablashgan shaklda qo’llagan.

Biroq Abdurahmonni to’xtatmang, agar siz shu chuvalchangning bahridan o’tanggiz, hamrohlariga katta ibrat ko’rsatgan bo’lasiz. (AQMCН-182b). Adib obraz tilidan ishlatgan “bahridan o’tmoq iborasi ham chuqur ma’noga ega ibora hisoblanadi. Bu iboraning ma’nosи “vos kechish” ma’nosini anglatadi. Ya’ni asarda keltirilgan obraz Abdurahmondek qabix

1 <https://uz.denemetr.com/docs/769/index-314436-1.html?page=2>



insondan vos kechishini nazarda tutgan. Asarda Abdurahmonni chuvalchangga o'xshatishi ham uning naqadar yomon shaxs ekanligi isbotlaydi.

Chunki “soyaboni marxamat” vijdon kengashiga qulq solg'uchi “axmoq” lardan emasdir! !(AQMC- 65b) Abdulla Qodiriy salbiy munosabatini ifodalash maqsadida xonning o'zini obrazlar nutqidan turli disfemik birliklar (“adolatpanoh”, “soyaboni marhamat”) orqali ifodalaydi: «Soyaboni marhamat» vijdon kengashiga qulq solg'uchi «ahmoq»lardan emasdir.

Ushbu gapda Xudoyorxonning soyaboni marhamatligi shubha tug'dirishi nashrda qo'shtirnoq ichida berilganligi bilan belgilanyabdi. Ushbu so'z ham salbiy emotsiyal so'z hisoblanadi. Disfemik birliklar bu ham asosan nutqda ro'y beradigan nolisoniy omil sifatida qarash lozimligi, u denotat salbiy ta'sirining kuchayishi e'tirof etiladi: “Disfemizm – de-notatni (tahqirlovchi, u yoki bu tarzdagi ottenkali) salbiy bo'yoq dor so'z bilan ifodalash.¹

Ha – a, taqsir, - dedi Samad bo'qoq va Shukur so'fini tirsagi bilan turtdi, - bu bala kimu, o'rdag'a mirzaboshilik kim? (AQMC- 67b). Gapning ohangidan ham ko'rindaniki, personajning *bu bala kimu, o'rdag'a mirzaboshilik kim?*deya mensimaslik ohangida kibr bilan so'zlayotyganini ko'rishimiz mumkin. Ortiqcha kibr ham salbiy ma'noga ega hisoblanadi.

Kibr, kibr-havo, manmanlik, dimog'dorlik — o'z shaxsiyatiga, qobiliyatiga ortiqcha baho berish, o'zini boshqalardan yuqori qo'yish, kalondimog'lik oqibatida namoyon bo'ladigan salbiy axloqiy sifat. Bu sifat kishilarni mensimaslik, ularga past nazar bilan qarash, o'rinsiz g'ururga berilish, o'zining arzimas yutuqlarini bo'rttirib ko'rsatish va b.da ko'rindan. Kibrli kishi o'z aybi, nuqsonlaridan ko'z yumadi, manmansiraydi. Manman kishi o'zgalarning nasihatini yoqtirmaydi, zalolat botqog'iga botadi. Kibr — kishilarning kamchiligi, nuqsonidir. Kibrodamlar o'rtasida birdamlik, ahillik va muhabbatni yo'q qiladi, adovat uyg'otadi. Kibr odobsizlik belgisi bo'lib, u doimo qoralangan.²

Bir it-da, taqsir, xafa bo'l mang. (AQMC- 72b). Obraz personajga bir itda deb ta'rif berishi, bu uning hayvonga qiyoslashidan darak. Ya'ni ushbu personajga nisbatan tuyg'ulari negativligini ifodalagan.

Nodon Anvar o'rdadan quvlanish yerida sarmunshiylik mansabiga minmakchi (AQMC- 81b). Obraz tomonidan Anvarga nisbatan nodon deya ta'rif berilmoqda. Bu esa salbiy ma'noga egadir. Ya'ni obrazning unga nisbatan yuragida adovat bor ekanligini ko'rsatadi. Nodon – bilmaydigan, xabarsiz, johil, ilmsiz, kaltafahm, befarosat³ kabi ma'nolarni anglatadi.

Qaysi go'rdan olding, menga bersangchi shuni! (AQMC- 132b). Asarda qahramon o'z emotsiyasini *jahli* bilan ko'rsatyabdi. Adib personaj ruhiyatini ifoda etar ekan uning tuyg'ulari va uning o'zini tutish motivlari o'ratasidagi ko'p tomonlama aloqalarni aks ettiriyabdi. *Jahl* ham o'zida negativlikni aks ettiradigan tuyg'udir. Jahlning ma'nosi nojo'ya xatti-harakatdan, gapdan yoki voqeа-hodisadan ranjish, achchiqlanish, g'azablanish tuyg'usi kabi ma'nolarni anglatadi. Jahlning sinonimlari : nodonlik; aqlsizlik; jaholat.

Tovushlar o'chsin. (AQMC- 142b). Obraz salbiy emotiyasini gap bilan ifodalagan. Bu yerda obraz asardagi personajlarga nisbatan g'azab bilan g'azab bilan *tovushlar o'chsin* deb aytishi uning qanchalik jahli chiqqanligini ifodalayabdi. Bu gapga nisbatan sinonim bo'lgan so'zlarni ham ko'rib chiqishimiz mumkin. Masalan: jim bo'lmoq, ovozini o'chrimoq kabilar.

Hay bema'nilar! Chaqirmsa, uyga kirishni bilmaysanlar! Kiyimni qara, kiyimni! Tuproqqa ag'nadingmi, eshshak! Qoq, qoq, eshib qoq! Attang-a, ezsiz kiyim... Bularning tatiq'ini bermasam,.. he ko'zlarining qursin! Qo'llaringni yuvib kel, eshshaklar!(AQMC-155b). Bu jumlani tahlil qilal ekanmiz, bir narsa e'tiborimizni tortadi, ya'ni Solih Mahdumning bolalariga qarata bunday munosabatda bo'lishi, ularni jerkishi, uning naqadar ziqlana va fe'li tor inson ekanligini ko'rsatadi. Ziqlalik va jerkish ham salbiy emotsiyal so'zlardir. Ziqlana – o'ta ketgan xasis, qizg'anchiq, mumsik⁴ kabi ma'nolarni bildiradi.

1 <http://www.hozir.org/etnolingvistika-va-milliy-madaniyat.html?page=42>

2 <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kibr>

3 O'zbek tilining izohli lug'ati ikkinchi jild, tuzatilgan ikkinchi nashri, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 48-b.

4 O'zbek tilining izohli lug'ati ikkinchi jild, tuzatilgan ikkinchi nashri, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 156-b.



Juda sust qadamsan-a, Ra'no . Seni talqon yeb suvga yuborg'an kishi qaytib kelguningcha, tiqilib o'ladi! (AQMCH-155b). Adibning personaj tilidan bunday kinoya ostiga olishi, asarni yanada ko'rkmalshtirgan, kinoya – salbiy expressivlikni orttirgan. Kinoya – belgi, sha'ma, piching, kesatiq kabi ma'nolarni anglatadi. Masxaralash , kulish uchun asl ma'nosidan boshqa majoziy ma'noda aytilgan so'z, gap, qochirim, istehzo, piching, kesatiq ifodasi.¹ Asarda Mahdum ham o'z qizi Ra'noga sust qadamligini, uni talqon yeb suvga yuborg'an kishi qaytib kelguningcha, tiqilib o'ladi deb aytishi sha'ma qilib aytilgan.

“Mulla Abdurahmondan non yemaymiz, sizga qarshi qattiq quturgan ikki itimiz bor edi, endi uchinchisini o'zinggiz keltirganga o'xshaysiz”... (AQMCH-175b). Gapda obrazning itga qiyoslanayotganini ko'ryabmiz. Insonning hayvonga nisbatan qiyoslanisi bu kamsitilish va haqoratlash hisoblanadi. Gapda yaqqol salbiy bo'yoqdorlik ko'zga tashlanadi.

Uyingga ikki tarafdan shuncha odam yig'ildi, so'zga kirmay, ularni ovora qilding, loaqal bir lagan osh bilan ularni jo'natsang o'lib qolarmiding... e hayf sendek mumsukka!(o'ta ketgan xasis) (AQMCH-215b). Obraz mumsuk deb murojaat etishi bejizga emas. Mumsuk so'zining ma'nosini o'ta ketgan xasis, baxil, ziqna kabi ma'nolarni anglatadi².

Seni yig'latib hayvon changaliga bermasman.. (AQMCH-221b). Jumlada bosh qahramon Anvar tomonida sulton Xudoyorga nisbatan hayvon so 'zi ishlatilgan. Bu so'z bejizga aytilmagan. Ya'ni sultonning hayvonga qiyoslanishi, uning naqadar pastkash va yomon inson ekanlididan darak beradi. Hayvon so'zi insonga nisbatan ishlatilganda hqaorat ma'nosini bildiradi. Haqorat – pastlik, razillik, pastkashlik, tahqirlash ma'nolariga ega, kishining or – nomusi shaxsiyatini pastga uradigan, tahqirlovchi, ma'no-mazmunli sozdir³.

Nima deyabdi u go'rsuxta? (AQMCH-239b).. Bu jumlada negativ ma'noga ega so'z go'rsuxta so'zi bilan ifodalangan.Go'rso'xta – yongan, kuygan kabi ma'nolarni anglatadi⁴.

Ana pul, kerak bo'lsa ol, sendek ifloslarni bir yil boqadi. (AQMCH-239b).. Yozuvchi obraz nutqidan iflos deb murojaat qilyabdi. Iflos – qashshoqlik, notavonlik, hech narsasi qolmaganlik, omadsizlik, obro' – e'tibori qolmaganlik⁵ kabi ma'nolarni anglatadi.

Xaromzoda Anvar uni yo'ldan ozdirib, Bu yerdan ham olib qochibdir. (AQMCH-243b). Anvarga nisbatan xaromzoda deya ta'rif berilmoqda. Bu so'z salbiy dennotif ma'noga ega so'zdir. *Xaromzoda* – haromdan, nikohsiz tug'ilgan.

Asarda foydalanilgan salbiy emotsional birliklarning umumiy manzarasi quyidagi jadval asosida aniqroq namoyon bo'lishi mumkin.

Nominativ salbiy emotsional birliklar	Verbal salbiy emotsional birliklar	Qarg'ish ma'nosidagi salbiy emotsional birliklar
“axmoq”	<i>qo'li sust kosibdan oyog'i chaqqon gadoy yaxshi emish.</i>	<i>Qurib ketkurlar</i>
<i>chuvalchang</i>	<i>bu bala kimu, o'rdag'a mirzaboshilik kim?</i>	<i>Tovushlaring o'chsin</i>
<i>Bir it-da</i>	<i>Qaysi go'rda olding</i>	<i>ko'zlaring qursin!</i>
<i>Nodon Anvar</i>	<i>Seni talqon yeb suvga yuborg'an kishi qaytib kelguningcha, tiqilib o'ladi!</i>	
<i>bema'nilar!</i>	<i>hayf sendek mumsukka! (o'ta ketgan xasis)</i>	
<i>eshshak!</i>	<i>sizga qarshi qattiq quturgan ikki itimiz bor edi</i>	

1 O'zbek tilining izohli lug'ati ikkinchi jild, tuzatilgan ikkinchi nashri, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 370-b.

2 O'zbek tilining izohli lug'ati ikkinchi jild, tuzatilgan ikkinchi nashri, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 637-b.

3 O'zbek tilining izohli lug'ati beshinchi jild, tuzatilgan ikkinchi nashri, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 521-b.

4 O'zbek tilining izohli lug'ati birinchi jild, tuzatilgan ikkinchi nashri, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 532-b.

5 O'zbek tilining izohli lug'ati ikkinchi jild, tuzatilgan ikkinchi nashri, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 243-b.



<i>eshshaklar!</i>	
<i>sust qadamsan-a,</i>	
<i>Hayvon</i>	
<i>go'rsuxta</i>	
<i>sendek ifoslар</i>	
<i>Xaromzoda Anvar</i>	

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, biz tahlil davomida ko'rib chiqayotgan xalqimizning sevimli yozuvchisi bo'lgan Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidan olingan obraz gaplarida salbiy emotsiyani ifodalash uchun o'zbek xalq maqollari, ibora, gap va so'zlardan keng foydalilanigan. Lekin tahlildan ko'rib shuni aytish kerakki, muallif romanda obraz gaplaridagi salbiy emotsiyani ifodalashda so'z birikmalaridan foydalanmagan. Ushbu romanda muallif va obraz gaplarida uchragan salbiy hissiyotlarni ifodalovchi maqol, frazeologik birlik (ibora), gap va so'zlarni tahlil qilib chiqdik. Yozuvchi, obraz gaplarida maqollardan ham foydalangan.

O'zbek xalq maqollari xalq og'zaki ijodida, kundalik muloqotimizda keng qo'llaniladi va shuningdek insonning emotsiyonal-ruhiy holatlarini o'zida ifodalab keladi. Ushbu obraz gaplarida esa iboralar obrazlarning ruhiy emotsiyonal holatini ko'rsatib bergen. Ya'ni obraz gaplarida obrazlar tomonidan salbiy emotsiyonal iboralar ishlataligan. Yozuvchi Abdulla Qodiriy personajlar ruhiy holatini, kechinmalarini mohirlik bilan tasvirlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. <https://uz.denemetr.com/docs/769/index-314436-1.html?page=2>
2. <http://www.hozir.org/etnolingvistika-va-milliy-madaniyat.html?page=42>
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kibr>
4. O'zbek tilining izohli lug'ati ikkinchi jild, tuzatilgan ikkinchi nashri, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 48-b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati ikkinchi jild, tuzatilgan ikkinchi nashri, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 156-b.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati ikkinchi jild, tuzatilgan ikkinchi nashri, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 370-b.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati ikkinchi jild, tuzatilgan ikkinchi nashri, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 637-b.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati beshinchi jild, tuzatilgan ikkinchi nashri, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 521-b.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati birinchi jild, tuzatilgan ikkinchi nashri, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 532-b.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati ikkinchi jild, tuzatilgan ikkinchi nashri, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 243-b.



TIL O‘QITISHNING PEDAGOGIK AMALIYOTIDA REKLAMA SHIORLARIDAN FOYDALANISH

Sh.M.Yunusova

Nizomiy nomidagi TDPU
katta o‘qituvchisi

J.F.Usmanov

Nizomiy nomidagi TDPU
talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada til o‘qitishda reklama shiorlaridan foydalanish usullari haqida ma’lumot berilgan

Kalit so‘zlar: reklama, autentik material, shior, kreollashtirilgan matn, semantika

Hozirgi davrda o‘qitish amaliyotida turli usul, texnika va yondashuvlar qo‘llanilmoqda. Barchaga ma’lumki, til o‘qitishda o‘rganilayotgan tildagi bosma materiallar, o‘rganilayotgan til mamlakatining madaniy predmetlari, video va audiovizual materiallar va boshqa ko‘p narsalarni o‘z ichiga olgan autentik materiallardan foydalanish jarayon samaradorligini va ta’lim oluvchilarning qiziqishini oshiradi.

K.S. Krichevskaya autentik materiallar deb asl adabiy, folklor, tasviriy, musiqiy asarlar, voqelik predmetlari: kiyim-kechak, mebel, idish-tovoq va ularning tasvirini belgilaydi [K.S. Krichevskaya 1996: 47].

G.I. Voronina ham autentik materiallarni belgilaydi, tasniflaydi va ularni quyidagicha guruuhlaydi:

- ko‘rsatma, tushuntirish, ogohlantirish funksiyalarini bajaradigan kundalik foydalanishdagi funksional matnlari;
- ma’lum ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan axborot matnlari;
- belgilar, yo‘l belgilari, yozuv, diagrammalar, sxemalar, risolalar va boshqalar;
- maqolalar, xatlar, intervyular, statistik ma’lumotlarning tushuntirishlari, grafiklar, reklamalar, hisobotlar va boshqalar. [Voronina, 1995: 56].

Reklama matni faol nutq faoliyatni sohasi sifatida ham namoyon bo‘ladi, demak u til o‘rganish jarayonida autentik material sifatida ishlaydi. Reklama jamiyat ijtimoiy hayotining muhim omillaridan biridir, chunki nafaqat o‘rganilayotgan til mamlakati kundalik hayotining turli qirralarinigina emas, balki uning madaniy-tarixiy an‘analarini, mafkurasini ham eng to‘liq aks ettiradi.

Semantik tahlil –bu til iboralarning leksik ma’nosini va ularning ma’nosini hamda ahamiyatini shakllantirish jarayoni. Ko‘pincha reklama matnnini semantik tahlil qilish jarayonida uning kreolizatsiyasi¹ muhim rol o‘ynaydi. Matn vizual material bilan birga kelganda, verbal materialning semantikasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ammo reklama matnida turli xil ifodali vositalar, masalan, ironiya yoki metafora ishlatsa, qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Semantik tahlil qilish talab etiladi [Brinton, 2000: 153].

Ma’lumki, chet el matnnini ona tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilish ko‘pincha ma’lumotni o‘zgartirish va uni ona tilidagi idrok etishga moslashtirish uchun muayyan harakatlarni talab qiladi. Autentik reklama materialining sintaktik tahlili ham semantik tahlil uchun muhim ahamiyatga ega. Gapning ma’nosini to‘g‘ri idrok etilishi uchun uning tuzilishini tushunish muhimdir [Trofimova, 1981: 6-8].

Reklama shiorlarida oddiy jumlalar ustunlik qiladi. Bu o‘quvchi tomonidan tez va natijali idrok etilishi kerak bo‘lgan reklama matnining ta’sirchan va jo‘shqinligi, shuningdek, so‘zlashuv nutqining ta’siri bilan bog‘liq. Matnda so‘zning asosiy rolini ta’kidlash uchun ishlatiladigan elliptik konstruksiyalar, turli xil inversiyalar, to‘liq va to‘liqsiz gaplar so‘zlashuv nutqi bilan assotsiatsiyalarni keltirib chiqaradigan ma’lum sintaktik xususiyatlarini yaratadi [Skripnik, 2017: 329].

Masalan, so‘roq va tasdiq gapning grammatick jihatdan to‘g‘ri tuzilishi ko‘pincha shiorda gapda bosh bo‘laklardan biri (yoki ikkalasi) mavjud bo‘lmagan so‘zlashuv nutqi shaklida keltirilgan bo‘ladi, bu esa sintaktik tahlil qilishda qiyinchiliklar tug‘diradi. U holda shiorning boshqacha talqiniga murojaat qilish, uning tarkibiga gap bo‘laklaridan birini inversiya qilish yoki

1 Креолаштирилган матнларга reklama matnlari, komikslar, afishalar, plakatlar misol bўla oladi.



almashtirishdan foydalanish maqsadga muvofiqdir [Xolikova, 2011: 450].

Autentik material vazifasini bajaradigan sodda gapni semantik va sintaktik tahlil qilish til o‘rganishda samarali bo‘ladi. O‘qishi oson, odamlarning keng doirasasi uchun tushunarli, oson eslab qolinadigan shiorlarni yaratishga oddiy gaplar yordam beradi. Bu tufayli ta’lim oluvchi shiorga o‘xshatib, o‘rganilayotgan til ona tili bo‘lgan shaxslarga tushunarli bo‘lgan va sodda, so‘zlashuv nutqi talablariga javob beradigan o‘z gaplarini yaratishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sintaktik konstruksiyalar reklama diskursida, ya’ni shiorlarda, nihoyatda keng tarqalgan, chunki butun reklama xabarining mohiyatini tushunarli, aniq va ta’sirchan tarzda etkazishga imkon berish;

- sodda gap turli sintaktik vositalar va ifoda vositalariga asoslanishi mumkin;
- shior reklama diskursida juda keng tarqalgan hodisadir;
- har qanday sodda gap shior shaklida namoyon bo‘lishi mumkin;
- shior fikrlash jarayoni va tasavvurni faollashtirishga ko‘maklashadi;
- reklama diskursida har xil turdagи sodda gaplar bo‘lishi mumkin;
- kreollashtirilgan matnlar – bu ham verbal, ham tasviriy-vizual vositalardan foydalaniladigan matnlardir.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Кричевская К. С. Прагматические материалы, знакомящие учеников с культурой и средой обитания жителей страны изучаемого языка – Иностранные языки в школе. – 1996. - № 1. – С. 47.
2. Воронина Г. И. Организация работы с аутентичными текстами молодежной прессы в старших классах школ с углубленным изучением немецкого языка – Иностранные языки в школе. – 1995. - № 5. – С. 56–60.
3. Brinton Laurel J. The Structure of Modern English: A Linguistic Introduction – University of British Columbia. John Benjamins Publishing Company, 2000. – 335 p.
4. Трофимова Э. А. Синтаксические конструкции английской разговорной речи – изд-во Ростовского университета, 1981. – 160 с
5. Скрипник К. В. Языковая архитектоника рекламного слогана (на материале английского языка) – Культура и цивилизация. 2017. Том 7. № 2А. – С. 328-338
6. Халикова Д. Г. Инверсия в английском предложении. Способы образования инверсии – Уфа: ГОУ ВПО Уфимский государственный авиационный технический университет, 2011. – С. 446–451



ТОПОНИМЫ КАК КОМПОНЕНТ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЫ МИРА

Гуллола Файзуллаевна Нишонова,
преподаватель (УзГУМЯ)
E-mail: gullola.nishonova@mail.ru

Аннотация. В статье рассматривается изучение топонимов как компонентов языковой картины мира. Рассматриваются работы ученых по данному вопросу.

Ключевые слова: топоним, антропоним, лингвистика, ономатолог, гидронимы, оронимы.

Топонимы (от греческого *topos* ‘место’ и опути ‘имя’) – это собственные имена географических объектов, географические названия. Совокупность топонимов той или иной территории называется топонимией. Лингвистическая наука, изучающая топонимы, – топонимика, раздел ономастики.

Количество и разнообразие географических объектов на Земле очень велико. Это материки, моря, океаны, горы, острова, города, поселки и др. Соответственно, в языках существуют миллионы собственных имен для называния этих объектов [1]. Как классифицировать это богатство?

В лингвистике известны разные подходы к классификации топонимов. Эти имена собственные можно делить на группы по их структуре, происхождению, семантике, времени возникновения и другим признакам в зависимости от того, какая задача стоит перед исследователем.

Известный ономатолог А.В. Суперанская считала, что среди всего многообразия классификаций топонимов (и онимов вообще) базовой должна быть такая, которая на первое место ставит связь имени собственного с именуемым объектом. Это так называемая предметно-номинативная классификация. В ее рамках топонимы делятся на группы (классы) в зависимости от того, какой географический объект они именуют: остров, реку, город или озеро [2].

Хотя, как уже отмечалось, географические объекты весьма разнообразны, всё же это разнообразие вполне можно обобщить и свести к нескольким видам: водные объекты, объекты рельефа, населенные пункты... Соответственно выделяются и классы (разновидности, группы, виды) топонимов. Для обозначения слов из разных топонимических классов существуют особые термины. Познакомимся с основными из них.

Гидронимы (от греческого *hydor* ‘вода’) – собственные имена водных объектов. Внутри данного класса топонимов выделяется несколько подклассов. Это вызвано тем, что видов водных объектов много (моря, реки, озера, пруды, ручьи и т. д.), все они играют важную роль в человеческой жизни, и люди всегда или очень часто дают им имена [3]. Соответственно, гидронимы делятся на следующие подклассы:

- потамонимы (от греческого *potamos* ‘река’) – географические названия рек (Енисей, Дон, Рейн, Миссисипи, Ганг);
- пелагонимы (от греческого *pelagos* ‘море’) – подвид океанонимов, названия морей или их частей (Черное море, Охотское море);
- лимнонимы (от греческого *limne* ‘озеро’) – названия озер и прудов (Байкал, Титикака, Чад, Эри, Патриаршие пруды);
- гелонимы (от греческого *helos* ‘болото, топкое место’) – названия болот и заболоченных мест (Оршинский мох, Усинское болото).

Оронимы (от греческого *oros* ‘гора’) – собственные имена наземных объектов рельефа. Иногда под оронимами понимают только названия гор и горных систем, но на самом деле этот термин относится к именам как возвышений, так и понижений земной поверхности: Кавказ, Гималаи, Урал.

Спелеонимы (от греческого *spelaion* ‘пещера, грот’) – собственные имена природных подземных образований, в том числе объектов подземного рельефа [4]. Сюда относятся пещеры, гроты, пропасти, подземные колодцы, озера, реки и водопады: Кро-Маньон, Титанический Зал (грот). Некоторые исследователи рассматривают спелеонимы как вид оронимов, другие выносят их в отдельный топонимический класс.

Хоронимы (от греческого *horos* ‘граница, рубеж, межевой знак’) – собственные



имена территорий, стран, областей, районов. Например: Сибирь, США, Китай, Азия, Борисоглебский район, Гасконь, Бавария.

Агроонимы (от греческого *agros* ‘поле, пашня’) – собственные имена земельных наделов, полей, участков: Пяткино поле, Круглое поле.

Инсулонимы (от латинского *insula* ‘остров’) – собственные имена островов и архипелагов: Сахалин, Мадагаскар, Гренландия.

Ойконимы (от греческого *oikos* ‘обиталище, жилище’) – собственные имена населенных пунктов. В этом классе выделяются два основных подкласса: астионимы (от греческого *asteios* ‘городской’) – названия городов: Воронеж, Москва, Нью-Йорк, Тбилиси; комонимы (от греческого *kome* ‘деревня, поселок’) - названия сёл, деревень, поселков: Вязовка, Ивановка.

1. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. – T.: 2004
2. Boymatova U., Sobirjonova D. Boshqaruva faoliyatida ish yuritish – T.: 2006



THE GOLDEN AGE IN THE HISTORY OF THE UNITED STATES AND WESTERN DETECTIVE LITERATURE

Abdulazizova Mahbuba Umidjon qizi

Tashkent State University of Oriental languages

mahbubaabdulazizova001@gmail.com

Research advisor: PhD Rasuleva Nigina Alisherovna

nigina11@hotmail.com

Annotation: This article is about USA and Western detective literature. Special attention is paid to the “golden age” of the second half of the 20th century and the novels written during this period. There is also a list of anti-traditional detective novels, writers and works in this field.

Key words: golden age, Uill Genry Rayt, “detective queen”, Jorj Simen, Niro Wulf, “tough guys”, anti-traditional detective, the logic of emotions, the root of the crime.

Although the detective genre, the result of a combination of realism and gothic genres, only emerged in the mid-nineteenth century, it quickly gained popularity and has not relinquished its position since.

The period between World War I and World War II was a “golden age” for Western detective literature. Thousands of detective novels have been written in the United Kingdom and the United States. Reading detective stories was no longer a pastime for idle people, but the lower classes were competing for it. By this time, the romantic atmosphere in the works had gradually disappeared, and various crimes and murders had become an integral part of every novel.¹ But these murders were only a sign. People were interested in how to solve mysteries, not the struggle between good and evil, and between them. Many writers in the Golden Age used their talents to entertain readers or to take quizzes between students and writers. Because writers and students had the same opportunity to unravel a mystery, this type of novel was considered a form of quiz. The creative work created during this period consisted mainly of labyrinthine games that did not address social issues and did not promote social life processes, but were simply used to entertain.

The founder of the Golden Age in America, S.S. Van Dyne, whose real name was Will Henry Wright (1888-1939). In the novels *Murder in Benson* (1926) and *Murder in the Canary Islands*, he rose to fame by creating the image of the knowledgeable detective Philo Vance. Elleri Quinn also followed in Reity's footsteps. The uniqueness of Quinns work is that students are given instructions from the beginning and are given the opportunity to solve the problem together with the detective. Quinn's best works are *The Secret of the Dutch Shoe* (1931), *The Secret of the Greek Coffin* (1932), and *The Secret of the Chinese Orange* (1934). *Mystery Story Magazine*, founded by Quinn, has been instrumental in the development of short detective novels. Detective Niro Wolfe in *The Soft Course*, written by Rex Stott (1886), was also popular during this period.²

During the same period, many detective writers appeared in Britain. The most famous of these is Agatha Christie, described as the “Queen of Detectives” and one of the most brilliant writers of the Golden Age. His debut works, *The Strange History of the Style Estate and Freeman Crafts' Barrel*, ushered in the golden age of detective literature. The popularity of Agatha Christie's novels lies in the fact that dubious characters use confusing arrangements to create illusions and come up with surprising results. During his lifetime, he wrote nearly 70 novels depicting two detectives, Poirot and Miss Marple. Among the works created by Agatha Christie are “Murder on the Eastern Express” and “Tragedy of the Nile”. Detective Frenchman Freeman Wells Crofts (1879-1957), Detective Reginald Ford Sen. H. K. Bailey, Roger Sheringema Anthony Berkeley, Fair and Henry Dixon Carr (1906), and two Lord Detectives Pete and Wima. author Dorothy Seyers (1893-1957) and others are among the most famous British detective writers.³

In the late 1920s, “anti-traditional detective novels” appeared in America, known as “successful kids”. This type of novel depicts complex processes, war scenes, and is radically different from

1 Борхес Х. Л. Детектив / Л. Х. Борхес // Как сделать детектив / пер. с англ., франц., нем., исп. ; сост. А. Строев ; ред. Н. Портгимова – Москва : Радуга, 1990. – С. 236–272.

2 Бавин Сергей. Зарубежный детектив XX века: Популярная библиографическая энциклопедия. – М: Книжная палата, 1991, 206 с

3 Д. Д. Николаев. Детектив // Литературная энциклопедия терминов и понятий / Институт научной информации по общественным наукам РАН: Интелвак, 2001. – 1596 С



traditional detective novels. Such novels to some extent reflect social reality. The post-World War I international economic downturn did not bypass the United States. Workers lost their jobs, lived in poverty, officials were subjected to injustice, and society was in turmoil. Some detective writers have tried to raise the literary level of detective novels by showing this social reality. Dahir Hammet (1894-1961) and Raymond Chedler (1888-1958) were the founders of the novels about the successful children. In their works, the characters are portrayed not only as a symbol of the work adapted to the requirements of the plot, but also as a real hero with weak points, who fall into awkward situations. In Hammet's novel, the detective is a hero and a bandit. Philip Marlow, a detective in Chedler's work, is a depressed man who fights with guns, despite the truth. In these novels, the police are not law enforcement, but collude with the criminal world, and some criminal organizations are supported by powerful politicians. The other characters in the play have a special personality and give people a sense of authenticity. Hammet and Chedler could use dialogues that reveal the characters' characters to show that the story is realistic and evolving. Hammet's “Bloody Harvest”, “The Glass Key”, “The Skinny Man”, “Chandler's”, “Goodbye, Dear”, “Little Sister”, and others were not only the first examples of “successful children”, but also the first in the world of literature. Some U.S. and British detective novelists who sought commercial value after World War II described the novels as an example of immorality.¹

There are several detective writers who have created works to study the problems that afflict humanity and social realities, and they try to find solutions to these problems in their works. The Swedish writer Friedrich Drenmat, who has a place among such writers, exposes the roots of crime in his German-language works *The Judge and His Assassin*, *The Promise*, and *Langar*, and seeks justice through realism. A French detective novel by Belgian writer Georges Simen illuminates the inner world of criminals by focusing on their psychological state. He is interested in why he committed the crime, not who committed it. He emphasizes the logic of emotions and clarifies the root causes of complex criminal motives. George Simen's works include *The Yellow Puppy*, *The Neuron War*, *The Death of Augustus*, and *The Angel and the Unwanted Witness*.²

Detective novelists written after 1940 include Count Stanley Gardner of the United States, who portrayed Perry Mason as a lawyer and detective, and Francis Rockridge and Richard Rockridge, who wrote detective stories about Mr. and Miss North. Latis and Martha Hennessat portrayed detective-banker John Putner Thecher under the pseudonym Emma Larson, British detective Elizabeth Mackintosh (1896-1952) Josephine Ti under the pseudonym Grant, and Robert Bruce Montgomery under the pseudonym Edmund Crispin, detective Kane Vas Fina.³

In conclusion, the Golden Age between the First and Second World Wars had a profound effect on American and British detective literature. works created at that time are still in the public eye. Detective novels are still popular today, and Western literature includes works such as *The Stupid Sisters*, *Mongrella*, and *Margaret's Coffin*. It accounts for nearly a quarter of all annual book sales in the United States.

References:

1. Бавин Сергей. Зарубежный детектив XX века: Популярная библиографическая энциклопедия. – М: Книжная палата, 1991, 206 с
2. Д. Д. Николаев. Детектив // Литературная энциклопедия терминов и понятий / Институт научной информации по общественным наукам РАН: Интелвак, 2001. – 1596 С
3. Александр Борисенко, Виктор Сонькин. «Не только Холмс. Детектив времен Конан Дойла». «АСТ» 2015, 576 с.
4. Ильина Н. Что такое детектив? / Н. Ильина // Ильина Н. Белогорская крепость : сатирическая проза : 1955–1985 / Н. Ильина. –Москва : 1989. С 32-330.
5. Борхес Х. Л. Детектив / Л. Х. Борхес // Как сделать детектив / пер. с англ., франц., нем., исп. ; сост. А. Строев ; ред. Н. Португимова – Москва : Радуга, 1990. – С. 236–272.

1 Александр Борисенко, Виктор Сонькин. «Не только Холмс. Детектив времен Конан Дойла». «АСТ» 2015, 576 с.

2 Ильина Н. Что такое детектив? / Н. Ильина // Ильина Н. Белогорская крепость : сатирическая проза : 1955–1985 / Н. Ильина. –Москва : 1989. С 329-330.

3 Борхес Х. Л. Детектив / Л. Х. Борхес // Как сделать детектив / пер. с англ., франц., нем., исп. ; сост. А. Строев ; ред. Н. Португимова – Москва : Радуга, 1990. – С. 236–272.



O'QUVCHILAR YOZMA SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA DIKTANTNING AHAMIYATI

Davlatova Dildora Esanboyevna,
Navoiy viloyat Navoiy shahar
7-umumi o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda yozma ishlarning ahamiyati, diktant turlari, uning maqsad va vazifalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: diktant, ta'lmiy diktant, nazorat diktant, erkin diktant, saylanma diktant

O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda yozma ishlarning ahamiyati katta. Dars jarayonida yozma ishlarning turlicha bo'lishi o'quvchilarning yozuvga bo'lgan muhabbatini oshiradi va taraqqiy ettiradi. Turli xildagi yozma ish bolalarning tafakkurini, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi hamda o'quvchilarning bilimini mustahkamlaydi, takomillashtiradi. Yozma ishlarning quyidagi turlari o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish uchun samarali xizmat qiladi: diktant, bayon, insho va ko'chirib yozish.

Yuqoridagi yozma ishlarning eng soddasi ko'chirib yozishdir. Lekin ushbu yozma ishlarning barchasi o'quvchilarda orfografik malakalarini shakllantirishga, mustahkamlashga, ularning ongi yozishlarini ta'minlashga va ish qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan bo'ladi. Matnni ko'chirib yozishni orfografik, grammatik, uslubiy topshiriqlar bilan birgalikda olib boorish maqsadga muvofiqdir. Yozma ishning ko'chirib yozish turida gapdagi tushirib qoldirilgan so'z yoki bo'g'inni qo'yib ko'chirish, matnda berilgan so'zni o'zgartirish, berilgan namuna yoki grammatik topshiriq asosida matn yoki so'z shaklini o'zgartirish, so'zlardan gap tuzish, berilgan namunaga o'xshash gap tuzish, savollarga javob berish, so'zlar ustiga qaysi grammatik shaklda ekanligini yozish, o'qilgan va tahlil qilingan matn bo'yicha savollarga javob berish kabilar kiradi. Ko'chirib yozush turi ham bir necha xil bo'lishi mumkin. Masalan, doskadan, jadvaldan yoki kitoblardan ko'chirib yozish.

Yuqorida qayd etilgan yozma nutqni o'stirishning asosiy va samarali, shu bilan birga katta ahamiyat kasb etadigan turi bu diktantdir.

1-11-sinflarda diktantlar, asosan, ikki maqsad uchun o'tkaziladi. Biri grammatika, orfografiya va punktuatsiyadan o'tilgan qoidalarni puxta bilib olishga yordam beradigan, mustahkamlaydigan, takomillashtiradigan ta'limi diktant bo'lsa, ikkinchisi, grammatika, orfografiya va punktuatsiyadan o'tilgan qoidalarni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini sinash, tekshirishga imkon beradigan nazorat diktantdir.

Ta'limi diktantning yana bir nechta turi mavjud:

- eslatish diktanti;
- o'z diktant yoki yoddan yozish;
- saylanma diktant;
- erkin diktant;
- grammatik topshiriqli diktant;
- tushuntiruvchi diktant;
- ijodiy diktant;

Quyida biz ta'limi diktant turlarining ayrimlari xususida to'xtalamiz.

O'z diktant yoki yoddan yozish diktanti 4-7-sinflarda o'tkaziladi. Bu diktanto quvchilarga grammatika va orfografiyadan oлган bilimlarni mustahkamlashga yordam berishi bilan birga og'zaki va yozma nutqni o'stirishga ham katta ahamiyatga ega. O'z diktant o'tkazish uchun o'tilgan mavzu qoidasiga va sinf o'quvchilarining saviyasiga mos keladigan kichik bir parcha yoki she'riy asardan bo'lak, yoki to'rtlik tanlanadi. Tanlangan parchani o'qituvchining o'zi bir necha marta o'qib beradi. O'quvchilar matn yoki she'rnii yodlab olgach, matn bekitiladi va o'quvchilar yodlab olganlarini daftarga yozadilar. O'quvchilar diktantni yozib bo'lganlardan keyin doskadagi matn ochiladi. O'quvchilar yozganlarini doskadagi matn bilan solishtiradilar va xatolarini tuzatadilar.

Erkin diktant – bayonning soddarroq bir ko'rinishi bo'lib odatda boshlang'ich maktablarning 3-4-sinfida o'tkaziladi.

Erkin diktantda o'quvchilar so'zlarni va grammatik shakllarni o'zgacha, erkin ishlata oladi-



lar. Ushbu diktant turi o‘quvchilarning qanchalik tushunganliklarini aniqlashga yordam beradi. O‘qituvchi matnni bir marta o‘qib eshittiradi. So‘ngra bo‘limlarga bo‘lib o‘qiydi. Agar o‘qituvchi 3 ta gap o‘qisa, o‘quvchiuni ko‘paytirib yozishi kerak bo‘ladi: erkin diktant o‘quvchilarni o‘qilgan matnni yaxshiroq esga saqlab qolishda, atrofdagilar nutqini diqqat bilan tinglashda nutqni o‘stirishda, yozma nutqni o‘stirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Erkin diktant o‘quvchilarning orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarini kamayib borishiga yordam berish bilan birga, o‘quvchilarning bayon, insho yozishga o‘rgatadi. O‘quvchilarning yozma nutqi rivojlanadi.

Ijodiy diktant – o‘tilgan qoidalarni puxta o‘zlashtirishga yordam berishdan tashqari o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini ham o‘stiradi. Ijodiy diktantda matn o‘qib berilmaydi. O‘quvchilar o‘zlarini berilgan so‘zlar bilan mustaqil ishlaydi. Shu jihatga ko‘ra ushbu diktant bayonga juda yaqin turadi. O‘quvchilar diktantning bu turida so‘zlarni to‘g‘ri yozishga, ularni o‘z o‘rnida ishlata bilishga va kichik-kichik matn tuzishga, ya’ni ijod qilishga o‘rganadilar. Bu turdagagi diktant yuqori sinfda bayonni osonlik bilan yozishga zamin hozirlaydi.

Diktant, umuman yozma ishlarning barcha turi ma’lum qoidalarning mustahkamlanishi bilan birga o‘quvchilarni har bir gapga, so‘zga, so‘z birikmasiga diqqat bilan qarashga o‘rgatadi. Shu bilan birga matndagi gaplardan kerakli so‘zni, grammatiks hakjni tezroq topa olishga o‘rgatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ahmedova H. O‘zbek tili o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish. – T: Navro‘z, 2016. – 215 B.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2002.
3. Erkaboyeva N. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami. Toshkent: -2019.



**“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI OBRAZLAR VA HIKOYATLARNING
BADIY XUSUSIYATLARI**

Egamova Marhabo Mardonovna,
Navoiy viloyat Navoiy shahar
7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Hayrat ul-abror” dostonidagi obrazlar va hikoyatlarning badiy xususiyatlar, dostondagi yigirma bitta hikoyatdagi o‘nlab so‘fiylar, shayxlar, hukmdorlar, an’anaviy obrazlar va turli toifa kishilarining timsollari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: “Hayrat ul-abror” dostoni, so‘fiylar, shayxlar, hukmdorlar, “sof” to’qima obrazlar

“Hayrat ul-abror”dagi hikoyatlarda turli mavzular qalamga olinganidek, ulardagi obrazlar ham xilma-xildir.

Dostondagi yigirma bitta hikoyatda o‘nlab so‘fiylar, shayxlar, hukmdorlar, an’anaviy obrazlar va turli toifa kishilarini timsollari uchraydi. Ularning asosini diniy tasavvufiy faoliyat bilan bog’liq shaxslar, shuningdek, shohlar, amir va hukmdorlar obrazlari tashkil etadi. Professor N.Mallayev Navoiyning turli asarlarida uchraydigan hikoyatlardagi obrazlar haqida quyidagilarni yozadi: “Navoiy hikoyatlarining qahramonlari tarixiy, yarim afsonaviy shaxslarning nomi bilan bog’lanadi, ularning orasida “sof” to’qima obrazlar ham anchagina. Qadimgi shohlar, yunon olimlari, Faxriddin Roziy, Hotami Toyi, Ibrohim Adham, Xoja Porso, Boyazid Bistomiy va boshqalar Navoiy hikoyalarining qahramoni. Ammo, hikoyalardagi qahramonlar aynan tarixiy shaxslarning obrazi bo’lmay, balki ayrim jihatlarini saqlab qolishiga qaramay, badiiy fantaziya, ijobiy to’qima bilan yo’g’ilib, allaqachonlar an’anaviy adabiy obrazlarga aylanib ketgan edi: Anushervon, Jamshid, Iskandar va boshqalar –adolat, shoh-shavkat; Arastu, Aflatun, Luqmon, Faxriddin Roziy va boshqalar – aql va donolik; Hotam Toyi – saxovat ramzi va hokazo; Majnun, Shayx San’o, Vomiq va Uzro, Xusrav va Shirin – an’anaviy oshiq-ma’shuqlar. Bu an’anaviy obrazlar bilan birga biz Navoiyning ayrim hikoyalarida uning zamondoshlarini ham ko’ramiz. Masalan, “Hayrat ul-abror”dagi “Shoh G’oziy” hikoyasida Husayn Boyqaro (ideallashtirilgan shoh obrazi sifatida); shu dostondagi “Ikki vafoli yor” hikoyasida Amir Temur obrazlari berilgan”¹

Birinchi hikoyatda Boyazid nomi tilga olinadi. Asarda u iymonli, insofli, shaxs sifatida namoyon bo’ladi. Ayrim tadqiqotchilar Boyazidning otasi Surushon islamni qabul qilgan, biroz vaqt mansabdor ham bo’lgan deyishadi. Boyazid Bistomiyning o‘qish yillari haqidagi fikrlar har xil: ba’zilar u biron bir maktab yoki ustoz qo’lida tahsil ko’rmagan, barcha ilmlar unga Olloh tomonidan in’om etilgan deyishsa, bir guruh sharqshunoslar “Boyazid uch yuz donishmanddan dars olgan” deyishadi.

Ikkinci hikoyatda Ibrohim Adham va Robiya Adviya nomi uchraydi. Ular ham o’zini islam yo’liga bag’ishlagan mashhur so‘fiylardan.. Ibrohim Adham zodagon oilada dunyoga keladi. Yoshligida yaxshi bilim oladi, ilohiyotga qiziqib haq yo’liga kiradi. Biroz vaqt shahr hokimi vazifasida ishlaydi. U haqda ko’plab rivoyat va afsonalar yaratilgan.²

Robia Adviya (Adaviya) ham mashur so‘fiy ayollardan. U taxminan 713-718-yillar oraliq’ida Basrada donishmand Ismoil Adaviy Kaysi oilasida dunyoga kelgan. Qiz oilada to’rtinch farzand bo’lgani uchun unga “Robia” deb nom qo’yishgan.

To’rtinch maqolatga ilova qilingan hikoyatda Abdulloh Ansoriy nomi uchraydi. Bu ham mashhur so‘fiylardan. O’z davri va undan keyingi asrlarda ham Sharqda ulkan shoir va shayx sifatida shuhrat sohibi bo’lgan Abdulloh Muhammad Ansoriy 1006-yilda Hirotning Ko’handich mahallasida alloma Abuayub Ansoriy xonadonida tavallud topgan.

O’n birinchi maqolatga misol sifatida keltirilgan hikoyatda Imom Faxr Roziy nomi keltirilgan. “Faxriddin Roziy (to’liq ismi Faxriddin Abu Abdulloh Muhammad bin Umar ibn al-Husay) mashhur kalom olimi va diniy falsafa namoyondasi.

O’n sakkizinch maqolatda ilova qilingan hikoyatda Suhrovard va Yoqut obrazlari bor. Yoqut

1 Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. 185-186-betlar.

2 Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Toshkent, 2004. 20-22-betlar.



– arablar orasida shuhrat topgan kotib. Bag'dodda Abbosiy xalifa Musta'sim davrida yashagan. “Qur'onni ko'chirishda yagona hisoblangan. Shayx Suhrovard esa mashhur so'fiylardan. Yirik va mashhur tariqat arbobi, o'z davrining yagonasi, nurlar matla'i, sirlar manbai, tariqat rahbari, haqiqat tarjimoni, zohir va botin ilmlarida barcha ulug' shayxlarning ustozи, oriflar yo'lboschchisidir.

Dostonda Ayyub obrazi ham bor. U Qur'onda nomi zikr etilgan yigirma besh payg'ambardan biri. Ayyub nomi va qissasi Tavrot, Injil hamda boshqa qadimiylarida ham keltirilgan. Ayyub har qanday musibatlarga, qiyinchiliklarga sabr-toqat qiluvchi, bardosh beruvchi inson sifatida tanilgan.

Hikoyatlarda hukmdorlar obrazi ham uchraydi. Ularning ayrimlari tarixiy shaxslar bo'lsa, ba'zilari afsonaviy shaxslar hisoblanadi. Uchinchi maqolatga “Shoh G'oziy” haqidagi hikoyat keltirilgan. Shoh G'oziy – bu Husayn Boyqaroning ideallashtirilgan obrazidir. Navoiy “Xamsa” dostonlarining ayrim boblarida Husayn Boyqaroni madh etadi. “Majolis un-nafois”ning sakizinchi majlisini ham unga bag'ishlaydi. “Shoh G'oziy” hikoyatida esa uni adolatli hukmdor sifatida ko'rsatadi.

“Hayrat ul-abror”da “No'shirvon hayosi” bilan bog'liq hikoyat mavjud. Unda No'shirvon (Anushirvon) haqida gap boradi. “Sharq xalqlari kitobiy adabiyoti va folklorida juda keng tarqalgan an'anaviy obrazlardan biri No'shirvon (Anushervon)dir. Navoiy No'shirvon nomini odillik ramzi sifatida bot-bot zikr etish va tavsiflash bilan birga, uning to'g'risida bir necha hikoyat ham keltiradi. Bu hikoyatlar “Hayrat ul-abror” va “Tarixi muluki Ajam”dan o'rinn olgan”¹.

Dostondagi “Ikki vafoli yor” hikoyatida Amir Temur nomi keltirilgan. Amir Temurning kimligini yaxshi bilamiz. “Amir Temur tarixiy manbalarda Temur, Temurbek, Amir Temur va Sohibqiron nomlari bilan bir qatorda Amir Temur Ko'ragon, Sohibi jahon (olam egasi) hamda Sohibi adl (Adolat o'rnatuvchi) kabi qator ulug' va qutlug' nomlar bilan ham tilga olinadi.

O'n birinchi maqolatga ilova qilingan hikoyatda Sulton Muhammad Xorazmshoh obrazi uchraydi. U Imom Faxr Roziyga qarshi tarzda keltirilgan. Ilm bilan shohlik qiyoslanib, ilmning abadiyligi ta'kidlanadi.

Dostondagi yana bir hikoyatda Iskandar nomi uchraydi. U ham shuhrat qozongan Aleksandr Makedonskiyning Sharqdagi ideallashtirilgan nomi. Iskandar, Iskandar Zulqarnayn – Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan obraz. Iskandat Qur'onning surasida eslangan Zulqarnayndir. U Sharqdagi musulmon xalqlari orasida mashhur. Navoiy “Tarixi muluki Ajam”da Iskandar haqida afsona, rivoyat va tarixiy asarlardan kelib chiqib fikr yuritadi.

O'n to'qqizinchi maqolatdan so'ng keltirilgan hikoyatda Bahrom obrazi uchraydi. Bu obraz Navoiyning ko'pgina asarlarida, ayniqsa, “Xamsa”ning to'rtinchi dostoni – “Sab'ai sayyor”da keng tasvirlangan. “Bahrom Go'r yoki Varaxran V (shohlik yillari 421-438) – Eronda hukmronlik qilgan sosoniylardan Yazdigardning o'g'li. Yaman shohi No'mon va uning o'g'li Munzir tarbiyasida o'sgan. Nizomiyning “Haft paykar”, Xusrav Dehlaviyning “Hasht bishisht” va Alisher Navoiyning “Sab'ai sayyor” dostonlarida Bahrom Go'r adolatli shoh, jasur sarkarda, ayni paytda maishatparast, xudbin shaxs sifatida tasvirlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, Bahrom Go'r 63 yil (ba'zi manbalarda 70 yil) umr ko'rgan”².

Umuman, hikoyatlardagi obrazlar ham rang-barang bo'lib ular tarixiy, afsonaviy, an'anaviy mashhur shaxslar nomi bilan bog'liq.

1 Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti 195-bet.

2 O'zME. 1 tom. Toshkent, 2000. 669-670-betlar.



О ОТА MAKONIM, ONAJON O’LKAM...

Jo’rəboyeva Munira Odilboyevna

Navoiy viloyati Konimex tumani 2-sonli maktabining
O’zbek tili va adabiyoti fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Muhammad Yusuf she’riyati va o’zbek adabiyotida tutgan òrnini organishga bağıshlangan.

Kalit sòzlar: ijodkorlik, xalqchillik, soddalik, she’riyat, ijodiy meros, zamondosh shoirlar

“Muhammad Yusuf. Uning she’riyatini chin ma’noda qanotli she’riyat, yurt osmonida baland parvoz qiluvchi , yuraklarga qanot beruvchi she’riyat desa bo’ladi ”degan edi O’zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov.

Darhaqiqat, Muhammad Yusuf rostgo’y shoir, halol va pokiza qalb egasi. U muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida yozadimi yoki tariximiz va taqdirimiz sahifalarini qalamga oladimi , ularda hamisha hayotga , haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Shoir avvalo, xalq dardini barilla kuylagan , yurt muhabbatini hech kimga o’xshamagan misralarda ta’riflagan she’rlari bilan tanildi, shu orqali shuhrat cho’qqisini egalladi.

Shoir 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyati Marhamat tumani Qovunchi qishlog’ida dunyoga keladi. Umrining ko’p qismini Respublika Kitobsevarlar jamiyatida, ” Toshkent oqshomi ” gazetasida, G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida o’tkazadi.1998-yildan umrining oxiriga qadar O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasida o’tkazadi.

1985-yilda shoirning ilk to’plami „ Tanish teraklar ” nomi bilan chop etiladi. Ushbu to’plamda shoir o’z hissiyotlari bilan lirik va erkin tarzda bo’lishadi, o’z hayoti va voqealari haqida gapiradi. Yuragida tug’yon urgan tuyg’ularni barchasini oq qog’ozga to’kadi. Maskur to’plamni tanqid olami ham, ijod ahli hamda keng jamoatchilik iliq qarshi oladi. Muhammad Yusuf omadli shoir edi: ijodiy yo’lining dastlabki bosqichidayoq taqdir uni Erkin Vohidov bilan yuzlashtirdi. Erkin Vohidov esa Muhammad Yusufning ajoyib iqtidorini sezib, uni rivojlantirishga yordam beradi. Keyinchaalik esa Abdulla Oripovning nazariga tushadi. Bu ikki buyuk zamondosh shoirlar Muhammad Yusufning iqtidorini to’g’ri yo’naltirishdi.

Keyinchalik shoirning „ Bulbulga bir gapim bor ”, „ Iltiji ”, „ Ishq kemasi”, „Erka kiyik”, „Osmonimga olib ketaman”, „Vatanim” kabi to’plamlari XIX asr oxiri XXI asr asabiyotimiz tarixining oltin merosiga aylandi.

Do’ppi kiymay qo’ydi odamlar,
Bir shoir bir ,bir nosirdan boshqa
Sochlар silliq
Silliq qadamlar
U og’irlik qilyapti boshga..
Rost do’ppilar,
yolg’on do’ppilar
Kinolarda qolg’on do’ppilar
Chust do’ppilar,
Anjon do’ppilar
Munchoqdek Marg’ilon do’ppilar...
Bu qandayin ko’rgulik ,savdo
Do’ppi kiymay qo’ydi haloyiq,
Boshga loyiq do’ppi yo’qdir yo
Bosh qolmadi do’ppiga loyiq.

Ijodining ilk yillaridayoq shoir o’zining o’zbek do’ppisi haqidagi she’ri bilan tanilgan. Keying yillar davomida bu she’r shoirning tashrif qog’oziga aylandi.shoir she’rida nega odamlar nega do’ppi kiymay qo’yanligiga to’xtaladi. Xo’sh boshga munosib do’ppi yo’qmi.Yo’q aksincha do’ppilarni kiyishga arzimaydigan boshlarning qolmaganligi haqidagi xulosa bilan she’rni yakunlaydi.

Shoir ijodiga nazar tashlar ekanmiz, she’rlaridagi xalqchillik, samimiyat, soddalik kishini o’ziga maftun etadi. Ijodkor soddalikda go’zallik yaratadi. Shevalardan qochmaydi.



Chust do'ppilar

Anjon do'ppilar...

Anjon - bir qarashda hozirgi o'zbek tilining orfografik qoidalariga zid tarzda yozilgan . Lekin bu she'rning ma'no mazmuniga aslo ta'sir qilmaydi. Balki she'rning xalqchilligini,qadr-qimmatini yanada oshiradi. Shoир ijodida bu kabi so'zlarni , iboralarни ko'lаб uchratish mumkin. Shoирning ijodiy merosi xalqimizning ardog'li mulkiga aylandi.

Muhammad Yusufning biron she'ri yo'qliki qo'shiq qiloib kuylanmagan bo'lsa,biron satri yo'qliki, yuraklarga kirib bormagan bo'lsa. O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad shunday degan edi „ Muhammed Yusuf tez og'izga tushdi. Biror shoир uningdek nom chiqarmagan , nomdor bo'limgan. Ochig'ini aytsam,Muhammedga ko'z tegdi. Aslini olganda asl shoirlar uzoq yashaydi. Ammo ortidan abadiy yashaydigan meros qoldirib ketdi. Endi shoирning o'zi yo'q .Ammmo Muhammed Yusuf atalmish she'riyati bor. Bu she'riyat aslo zavol bilmaydi”.

Darhaqiqat ,o'zbek xalq shoiri Muhammed Yusuf jo'shchin va ijodiy faoliyati davomida jonajon Vatanimiz , muataqilligimiz, mehnatsevar xalqimizni madh etuvchi she'rlari bilan adabiyot muxlislarining ardog'iga sazovor bo'ldi.

Ko'hna tol beshikdan boshlanar olam,
Seni iddaolar qilmay sevaman,
Bir kuni singlim deb, bir kuni onam,
Vatan kimligingni bilmay sevaman...

Shoир Vatanini benihoya sevar edi. Onasi kabi,singlisi kabi, aslo iddaolar qilmay buyuk muhabbat bilan yonib sevardi. Shoир qisqa umr ko'rdi , biroq o'zidan hech o'chmas chiroq , yorug' iz qoldirdi. Ijodkor 2001-yilning 29-iyul kuni vafot etdi. Lekin shoир o'zi ta'bir qilganidek,shoирning bu yorug' dunyoda chiroq' o'chmaydi. Gohi o'tliq she'r , gohi dilbar she'r bo'lib jaranglayveradi.

Foydalanimagan adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Tola asarlari toplami. 5 jildlik - 1-jild Toshkent: G', G'ulom.
2. Xurshid Davron. Özbek adabiyoti va san'ati gazetasi. 2010-yil, 5-sun



ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ГЛАГОЛА В МЛАДШИХ КЛАССАХ ПО МЕТОДИКЕ Т.Г.РАМЗАЕВОЙ

Мирзаева Умида Абдуназоровна

Учитель русского языка, общеобразовательной школы № 1
Язъянского района Ферганской области.

АННОТАЦИЯ: в этой статье подчеркивается важность преподавания русского языка, особенности изучения глагола в младших классах по методике т.г.рамзаевой.

Ключевые слова. Определение темы и основной мысли высказывания, требования, умениями, составление плана и композиционной схемы.

Лингвистической основой методики работы над частями речи в процессе школьного обучения русскому языку является учение о частях речи как разрядах слов, «объединенных общими грамматическими свойствами, отражающими общность их семантики».

Распределение слов по лексико-грамматическим разрядам (частям речи) осуществляется на основании трех признаков:

- а) семантического (обобщенное значение предмета, действия или состояния, качества и т. д.);
- б) морфологического (морфологические категории слова);
- в) синтаксического (синтаксические функции слова).

Работа, следовательно, и должна быть направлена на осознание учащимися общности в языке определенных групп слов, их роли в общении людей.

Каждую часть речи, в том числе и глагол учащиеся начальных классов осознают с пяти сторон:

- 1) что обозначает слово (предмет, признак предмета или действие предмета),
- 2) на какие вопросы отвечает,
- 3) как изменяется или какие имеет постоянные категории,
- 4) каким членом предложения чаще всего выступает в предложении,
- 5) какие имеет окончания; как чаще всего образуется.

По указанным пяти параметрам учащиеся проводят и сопоставление изучаемых частей речи.

Современной типовой программой предусмотрено, что по мере изучения постепенно углубляются знания о грамматических признаках каждой части речи.

Однако в I классе, проводится ознакомление с частями речи и проведение классификации слов с учетом морфологического вопроса, на который они отвечают.

II-III класс являются центральными в формировании понятия «часть речи». Учащиеся знакомятся с совокупностью лексико-грамматических признаков, свойственных каждой части речи: роль в языке, обобщенное лексическое значение, категория рода, числа, времени (у глаголов), функция в предложении.

В IV классе углубляются знания о морфолого-синтаксической стороне каждой части речи: изменение имен существительных и имен прилагательных по падежам, глаголов по лицам. Также в IV классе большое место занимает формирование навыков правописания окончаний.

Основные задачи заключаются в том, чтобы сформировать первоначальное понятие о глаголе как части речи, развить умение осознанно употреблять глагол в устных и письменных высказываниях, повысить уровень умственного развития учащихся, выработать навык правописания личных окончаний наиболее употребительных глаголов I и II спряжения. Все задачи решаются во взаимосвязи.

Лингвистические особенности глагола довольно сложны, поэтому в начальных классах учащиеся знакомятся только с некоторыми категориями, характерными для данной части речи. При отборе материала учитывается степень его необходимости для осознанного решения речевых и орфографических задач.

Работа над глаголами в I классе. Подготовительный этап работы над глаголами условно относится к периоду обучения грамоте.

Подготовка к изучению глагола заключается в развитии у учащихся внимания к



лексическому значению слова, и в частности глагола. Происходит как бы накапливание того конкретного материала, на основе которого становится возможным обобщение относительно типичного для глагола лексико-грамматического значения: обозначают действие предмета. Упражнения над глаголами не являются самоцелью отдельных уроков, а проводятся в связи с чтением страниц букваря, составлением предложений по картинкам и т. д.

В период обучения грамоте дети выполняют такие задания:

- 1.Различение предмета, явления и слов, их называющих.
2. Соотношение названия нарисованного предмета со схемой слова.
3. Классификация и объединение в группу слов по лексическому значению.

4.Объединение слов в группы (части речи): знаменательные (самостоятельные) слова, слова, обозначающие предметы, признаки предмета, действие предмета; служебные слова (без дифференциации).

При работе с учебником осознание учащимися роли глаголов в нашей речи способствует упражнение в сравнении текста без глаголов и с ними. Ознакомление с глаголами (без термина) продолжается при наблюдении над их лексическим значением и вопросов, на которые они отвечают.

Литература

1. Программы общеобразовательных учреждений: Русский язык: 5-9 классы / М. Т. Баранов, Т. А. Ладыженская, Н. М. Шанский. М., 2002.
2. Русский язык: Программы: 5-9 классы: К параллельным стабильным комплектам учебников, входящих в Федеральный перечень / Сост. Л. М.



TARIX FANINI O'QITISHDA CHET EL TAJRIBALARINI O'RGANISH VA FOYDALANISH

O'taganova Fotima Xalilovna
Abdullayeva Gulruh Shorasulovna
Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani
5 – maktab tarix fani o'qituvchilari

Annotatsiya: ushbu maqolada tarix fanini o'qitishda chet el tajribalarini o'rganish va foydalanish texnologiyalari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Chet el tajribasi, eksperiment, toifali ta'lif, bakalavr, magistr, oliy texnologiya maktablari, oliy muhandislik maktablari, oliy arxitektura maktablari.

Vatanimiz ta'lifi keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirmoqda ulardan ko'zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoiyillarini rivojlantirish, bu vazifalarning muvaffaqiyatli hal qilishning muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalariga munosabatni tubdan o'zgartirishdan iborat ekanligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Bu tajribalarni sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali ta'linda xato va yanglishishlardan, shubhali xulosalardan o'zimizni saqlashimizdan tashqari ta'lif-tarbiyada qotib qolgan, eskirgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllari va uslublaridan tezroq xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz.

Shuni e'tirof etish kerakki, rivojlangan mamlakatlarda ta'lif sohasida ulkan o'zgarishlar sodir bo'layotgan bir davrda bizda ta'lif mazmunini yangilash uni boshqarish yangi pedagogik texnologiyani maktab hayotiga tatbiq etishda hamon kamchiliklar mavjud.

Ta'lif-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy-texnika taraqqiyoti yangi texnalogik rivojlanishlar sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini etishtirib berish yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda o'rta ta'lifning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish ta'lif mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash ta'linda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish uni muqim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddaodir.

Rivojlanayotgan xorijiy davlatlarda ta'lifning, mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy taminlashga qaratilayotgan mablag' miqdori yildan yil oshib bormoqda. Yaponlarda, masalan “maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoligina bo'lib qolmay, “u insonlarni yaxshilaydi”, degan fikr ishonch timsoliga aylangan. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tatqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar faoliyat olib boradi.

Fransiya, Germaniya, AQSh, Yaponiyada ta'lif-tarbiya nazariyasi muommolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tatqiqot markazlari shug'ullanmoqda. Ular faoliyatini esa xalqaro ta'lif markazlari, masalan AQShda xalqaro ta'lif instituti muvoffiqlashtirib bormoqda. Asosiy o'quv dasturlariga ma'lum cheklanishlarni kiritish, alohida predmetlarni urganishni kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtiradi va o'quvchilarni ortiqcha yuk dan halos qiladi. Bu masalani ijobiy hal etishda o'quv kurslari integrasiyasini amalga oshirishga yordam beradi. Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integrasiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirildi. Fransiya maktablarida ularga 6-10 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz o'quv soatlari ajratildi. Chet el tajribalari shuni ko'rsatdiki, ta'lif mazmunini qayta qurish ishida shoshma-shosharlilikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Fikrimizcha, bu sohada samaraliroq yo'l integrasiya va ixtisoslashtirishga asoslangan o'quv dasturini yaratishdir.

Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor tobora ortib bormoqda. Qobiliyatli bolalar bilan ishslash dasturlari AQShda keng ko'lamga ega keyingi davrlarda o'z tengdoshlariga nisbatan qobiliyati bir necha barobar ilgarilab ketgan bolalar bugun ko'pchilikni tashkil etmoqda. Bunday iqtidorli talabalar maktabi g'arbda 60-yillardayoq paydo bo'lgan edi. Qobiliyatli bolalar bilan ishslash dasturi AQShda keng rivojlangan.



AMERIKA QO'SHMA SHTATLARIDAGI TA'LIM

AQShda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Shunisi diqqatga sazovorki, AQSh maktablarining bitiruvchi sinf o'quvchilaridan tashqari barcha o'quvchilar ta'tillar paytida ish bilan band bo'ladilar. Ta'lim tizimlariga mablag' ajratish bo'yicha AQSh dunyo mamlakatlari o'rtaida yetakchi o'rinni egallaydi. Amerika boy mamlakat lekin bu mamlakatda bolalar uch yoshga tulgunlaricha onalarga turli moddiy imtiyozlar berilish nazarda tutilmagan. Boshlang'ich maktablarning asosiy vazifasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarga to'laqonli bilim, ta'lim berish, ularning umuminsoniy, axloqiy xislatlariga ega bo'lib shakllanishini taminlashdan iboratdir. Amerika maktablarida o'quv-tarbiya ishlari bilan bog'liq masalalarni to'laligicha har bir shtat o'ziga mustaqil belgilab olish huquqiga ega. Shu boisdan boshlang'ich maktablarda o'quv davomiyligi turli shtatlarda turlicha. Ya'ni boshlang'ich ta'lim 4,5,6,8 yillik bo'lishi mumkin.

FRANSIYADA TA'LIM TIZIMINING AMALGA OSHIRILISHI

Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o'rnlardan birini egallaydi. Uning ta'lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Fransiya ta'limining asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlarining kamol topishini taminlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash bozor munosabati sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish va shunga xos kasbga yo'naltirishdan iborat. Boshlang'ich sinflardagi o'qish ertalabki va tushdan keyingi qismlarga bo'linadi. Fransiyada boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb etiladi. Fransuz maktablarida nafosat ta'limiga ham alohida ahamiyat beriladi. Bunday ta'lim uch tartibdan iborat: musiqa, tasviriy sanat va sport. O'quvchilar 11 yoshda boshlang'ich maktabni tugallab o'rta muktabga o'tadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

J.G.Yo'ldoshev "Xorijda ta'lim" T.:1995

2. J.G.Yo'ldoshev "Yangi pedagogik texnologiyalar yo'naliishlari,muommolari va yechimlari" T.:1999



O’ZBEK TILIDAGI TASVIRIY IFODALAR PRAGMATIKASI

Pratova Gulshoda O’tkirbek qizi

Andijon davlat univesiteti
Filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

Anotatsiya: Ushbu tezis leksikologiya sohasining ob’ektlaridan biri bo‘lgan, tasviriy ifodalarning semantik qurilishi hamda ularning pragmatik hususiyatlari haqida fikr yuritishga va nazariy ma’lumotlar berishga bag‘ishlangan.

Kalit so’zlar: Tasviriy ifoda, pragmatika, sema.

Insonlar og‘zaki nutqining go‘zal, ma’noli jozibador bo‘lib, shakillanishi bu, albatta, tasviriy ifodalalar bilan bog‘liq. Nutqni, shunchaki, gapirib berish orqali uni jozibakor qilib bo‘lmaydi, bunday hollarni shakillantruvchi ma’lum birliklar, ya’ni tasviriy ifodalalar mavjud bo‘lib, ular muloqotni badiyilagini, insonlarga o‘zgacha bir estetik zavq berishi hususiyatiga ega ekanligi ma’um.

Biror narsa-hodisani boshqa bir narsa-hodisaga o‘xshatish orqali tasvirlab, ifodalash **tasviriy ifodalar (perefrazalar)** deyiladi.[1.74] Tasviriy ifodalalar narsa va hodisalarning ikkinchi nomi sanaladi. Ular nutqimizning ta’sirchanligini yanada oshirishga hizmat qiladi, shuning uchun bir qancha uslubiy vazifalarni bajaradi.[2.85] Ko‘rinadiki, tasviriy ifodalalar tarixi ancha oldinga borib taqaladi, ya’ni ularni o‘rganish ham davrlar mobaynida amalga oshib kelmoqda va shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ularni mana shu davrlarga qadar tuzilish-qurilish jihatlari keng o‘rganilgan, lekin hozirgi tilshunoslik farqli ravishda barcha fonema, leksema, morfema, so‘z, so‘z birikmasi va h.ni pragmatik hususiyatlarini, bir so‘z bilan aytganda barcha bo‘limlarni mazmun tomonini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu o‘rganilishga asos qilib olingan tasviriy ifodalarning ham pragmatikasi hozirgi kunda shakillanib bormoqda. Misol uchun:

Mo‘yqalam sohiblari – rassomlar sifatida qaralgan, lekin hozirdagi axborot texnologiyalari zamonda ushbu tasviriy ifoda mobil tarmoqlardan keng foydalanuvchi insonlarga nisbatan qo‘llanmoqda.

Kumush tola-paxta, pilla (omonim) sifatida qaralgan bo‘lsada, hozirgi kunda bu tasviriy ifoda o‘z ma’nosiga nisbatan yaqinroq bo‘lgan sochini har tusga olib kirganlarga nisbatan qo‘llanmoqda.

Dala malikasi- makkajo‘xoriga nisbatan foydalanilgan, lekin hozirgi kundagi pragmatikasi, tarmoqlardan keng foydalanuvchi qizlarga nisbatan. Misol uchun: *Yasmina odnoklasniki tarmogidagi dala malikasi, go‘yo..* (jurnaldan)

Zangori ekran-televizor. Ushbu tasviriy ifodada yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan so‘z ham, uning semasi ham bugungi kun kishisi uchun noma’lum leksema kabi tuyilmoqda, ya’ni ushbu tasviriy ifoda muomaladan asta-sekin chiqib bormoqda.

Aql gimnastikasi-shaxmat, matematika so‘zlariga tasviriy ifoda sifatida qaralgan, ammo hozirgi kun nuqtai nazaridan ushbu so‘z kesatiq semasini beradi, ya’ni biror aqilli insonga nisbatan; *Hoy, aql gimnastiklari ortimdan yurlaring, baribir o‘zim bu o‘rmonдан olib chiqmasam, bjutun umr shu yerda qolib ketishasan* (Jurnaldan) kabi, o‘nlab tasviriy ifodalarni keltirish mumkin.

Tasviriy ifodalarni qaysidir ma’noda frezeologik birliklarga qiyoslash mumkin, chunki har ikkalasi ham ko‘chma ma’no ifodalaydi, gapda so‘z birikmasi tipida keladi hamda boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida turli noqulayliklarga, ya’ni ularning sintaktik qurilishi jihatiga, semantik strukturasidagi nomutanosibliklarga dash kelamiz bu esa, ularni bir satr doirasida ekanligidan anglashiladi. Xulosa o‘rnida, Nutqnni ta’sirchanligini oshirish maqsadida hamda ular, asosan, ot turkumidagi so‘zlar bilan ifodalanlishi anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O.Hmroyeva. „Ona tili to‘plam” Toshkent. Akademnashr.2018
2. Sh.Shoabdurahmonov. „hozirgi o‘zbel adabiy tili”. Toshkent.1980



O‘ZBEK TILI O‘QITISH METODIKASIDA YANGI BOSQICH

Qo‘ldosheva Mehriniso Mardonovna

Toshkent shahar Yangihayot tumani

32-umumi o‘rtalim maktabi

oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilini o‘qitish metodikasini yangi bosqichga ko‘tarishda xalqaro baholash dasturlari, STEM yondashuvga tayangan holda yangi avlod darsliklari va yangi ta’lim usulini takomillashtirish xususida fikr bildiriladi.

